



**UNODC**

United Nations Office on Drugs and Crime  
Regional Office for Central Asia



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FARG'ONA  
VODIYSI KENG JAMOATCHILIGI ORASIDA  
O'TKAZILGAN XALQARO

# VIKTIMIZATSIYA BO'YICHA

TADQIQOT NATIJALARI



Ushbu nashr O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi va BMT Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining (BMT GMJBB) Markaziy Osiyo mintaqaviy vakolatxonasining (MOMV) qo'shma tashabbusi hisoblanadi. U 2022-2025 yillarga mo'ljallangan BMT Tinchlik qurish jamg'armasi moliyaviy ko'magida BMT GMJBB MOMV "Jinoyatchilikning oldini olish, odil sudlovga erishish va qonun ustuvorligini mustahkamlash" 2-kichik dasturi doirasida tayyorlangan.

Ushbu hisobotni tayyorlagan professor Yan van Dayk va professor Jon van Kesterenga alohida minnatdorchilik bildiramiz.

Viktoriya Alekseeva xonim, Malika Hakimdjanova xonim, janob Oleg Kim, janob Durbek To'raxanov, janob Nosirjon Asqarov, janob Uyg'un Nig'madjanov, IntoResearch Marketing va sotsiologik tadqiqotlar markazi va uning direktori Mavlyuda. Eshto'xtarova xonimlarning qo'shgan qimmatli hissalarini alohida ta'kidlaydi.

Ushbu nashrning mazmuni BMT GMJBB MOMV va unga xamkor tashkilotlarning nuqtai nazari, strategiyasini aks ettirmaydi yoki ularning hech qanday ma'qullashini anglatmaydi

Mazkur nashrda foydalanilgan belgilar, materiallar va xaritalarning taqdimoti har qanday mamlakat, hudud, shahar yoki uning hokimiyat organlarining huquqiy maqomi yoki biron bir davlatning huquqiy maqomi uning chegaralari, shuningdek chegaralarini delimitatsiya qilish yuzasidan BMT GMJBB ning biron bir fikr bildirilishini anglatmaydi.

Ushbu nashr rasman tahrir qilinmagan.

2023-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi (BMT GMJBB MOMV) tomonidan chop etilgan.

Ushbu nashrning elektron shakli <https://www.unodc.org/centralasia/en/publications.html> manzilida mavjud.

© BMT GMJBB MOMV

Dizayn Bekbolat Kubeev tomonidan tayyorlangan

O'zbekiston Respublikasining  
Farg'ona vodiysi keng jamoatchiligi  
orasida o'tkazilgan xalqaro  
viktimizatsiya bo'yicha tadqiqot  
natijalari

# QISTQARMALAR VA ATAMALAR

<b>BMT GMJBB MOMV</b>	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi, Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolathonasi
<b>BRM</b>	Barqaror rivojlanish maqsadi
<b>XVT</b>	Xalqaro viktimizatsiya tadqiqoti
<b>BP</b>	Bosh Prokuratura
<b>BMTTD</b>	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi
<b>YUNESKO</b>	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti
<b>SPSS</b>	"ijtimoiy fanlar uchun statistik ma'lumotlar to'plami", statistik ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan kompyuter dasturi
<b>PAPI</b>	Qog'oz so'rovnoma yordamida o'tkazilgan shaxsan intervyu
<b>CAPI</b>	Intervyu oluvchilar tomonidan oldindan dasturlashtirilgan planshetlarda o'tkaziladigan shaxsan intervyu
<b>CATI</b>	Avtomatlashtirilgan telefon orqali intervyu
<b>YI</b>	Evropa Ittifoqi



# MUNDARIJA

<b>QISTQARMALAR VA ATAMALAR</b> .....	<b>IV</b>
<b>MUNDARIJA</b> .....	<b>VI</b>
<b>JADVALLAR RO'YXATI</b> .....	<b>VII</b>
<b>DIAGRAMMALAR RO'YXATI</b> .....	<b>IX</b>
<b>KIRISH</b>	
<b>UMUMIY MA'LUMOTLAR</b> .....	<b>X</b>
Natijalarning siyosatga ta'siri.....	xii
<b>1 KIRISH</b> .....	<b>1</b>
1.1 Xalqaro Viktimizatsiya Tadqiqoti (XVT) haqida ma'lumot.....	2
<b>2 METODOLOGIYA</b> .....	<b>4</b>
2.1 So'rovnoma.....	4
2.2 Intervyu usuli.....	5
2.3 Joylarda so'rov o'tkazishga tayyorgarlik.....	6
2.4 Namuna olish tartibi.....	7
2.5 Joylarda so'rov o'tkazish va javob olish darajasi.....	7
2.6 Ma'lumotlarni boshqarish, javoblarni ko'rib chiqish, tahlil qilish va taqdimoti.....	8
<b>3 VIKTIMIZATSIYA DARAJASI</b> .....	<b>9</b>
3.1 Viktimizatsiyaning keng tarqalishiga oid natijalar.....	10
3.2 Tanlangan jinoyatlar bo'yicha viktimizatsiya darajasi.....	12
3.3 Shaxsiy mulkni o'g'irlash, iste'molchilarni aldash va firibgarlik natijasida viktimizatsiyaga uchrash.....	13
3.4 Avtotransport vositalarini o'g'irlash, chorva mollarini o'g'irlash va qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlash.....	14
3.5 Yo'l-transport hodisalari.....	16
3.6 Bosqinchilik va boshqa maishiy o'g'irliklar.....	16
3.7 Talonchilik va boshqa zo'ravon jinoyatlar.....	17
3.8 Poraxo'rlik.....	19
<b>4 XALQARO, QIYOSIY NUQTAI NAZARDAN VIKTIMIZATSIYA KO'RSATKICHLARI</b> .....	<b>21</b>
4.1 To'qqizta keng tarqalgan jinoyatlarda viktimizatsiyaning keng tarqalganligi.....	22
4.2 Avtotransport bilan bog'liq jinoyatlarining keng tarqalganligi.....	22
4.3 Bosqinchilik jinoyatining keng tarqalganligi.....	24
4.4 Zo'ravonlik jinoyatlarining keng tarqalganligi.....	25
4.5 Iste'molchilarga nisbatan firibgarlik jinoyati va ko'cha darajasidagi korruptsiyaning keng tarqalganligi.....	27
<b>5 TURLI AHOLI GURUHLARI ORASIDA VIKTIMIZATSIYA XAVFLARI</b> .....	<b>29</b>
5.1 Shahar-qishloq aholi punktlari.....	30
5.2 Farg'ona vodiysidagi uchta viloyat.....	30
5.3 Yosh, jins va daromad darajasi.....	32

<b>6 JABRLANGANLARNING VIKTIMIZATSIYASGA REAKTSIYASI.....</b>	<b>35</b>
6.1 IIOga murojaat qilish .....	35
6.2 Murojaat qilish va qilmaslikning sabablari.....	37
6.3 IIO ishidan qoniqish .....	40
6.4 Jabrlanganlarning javoblari bo'yicha xalqaro qiyosiy xulosalar .....	43
<b>7 JABRLANGANLAR UCHUN JINOYAT OQIBATLARI.....</b>	<b>47</b>
7.1 Jinoiy viktimizatsiyaning og'irlik darajasi.....	47
7.2 Yo'l-transport hodisalari va zo'ravon jinoyatlarning sog'liq bilan bog'liq oqibatlari .....	49
7.3 Emorsional ta'sir.....	49
7.4 Og'ir jinoyatdan jabrlanganlarga ko'rsatiladigan xizmat va qo'llab-quvvatlash.....	50
<b>8 JINOYATCHILIK VA JINOYATCHILIKNI NAZORAT QILICH BO'YICHA JAMOYAT FIKRI.....</b>	<b>53</b>
8.1 Xavotir va jazolanish hissi.....	53
8.2 Jinoiy odil sudlov organlari ishidan qoniqish .....	56
8.3 Boshqa jinoyat tahdidlari haqidagi tasavvurlar.....	56
8.4 Boshqa masalalar .....	58
<b>9 AHOLINING ICHKI ISLAR ORGANLARI BILAN MULOQOTINING BOSHQA KO'RINISHLARI.....</b>	<b>59</b>
9.1 Ichki ishlar organlari patrullarining qamrab olish darajasi.....	59
9.2 Fuqarolarning ichki ishlar organlari bilan ro'baro' kelishi .....	60
9.3 Fuqarolarning IIO ishidan qoniqish darajasi.....	61
9.4 Xalqaro nuqtai-nazar .....	62
<b>10 16-BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADINI SO'ROVNOMAGA ASOSLANGAN KO'RSATKICHLAR YORDAMIDA MONITORING QILISH .....</b>	<b>63</b>
<b>11 XULOSALAR VA SIYOSATGA TA'SIR .....</b>	<b>67</b>
11.1 Tavsiyalar.....	69
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOT .....</b>	<b>73</b>
<b>Ilovalar .....</b>	<b>77</b>
Ilova A – Metodologiyaning tafsilotlari.....	78
Ilova B – So'rovnoma .....	82
Ilova C – Ishonchlilik va aniqlik darajasi.....	87
Ilova D – Qo'shimcha jadvallar .....	89
Ilova E – XVT haqida .....	92

# Jadvallar ro'yxati

2-1-jadval. Ma'lumotlar yig'ishda intervyu oluvchilar ishtiroki haqida umumiy ma'lumot beradi.....	6
3-1-jadvalda to'qqizta asosiy jinoyat va jami o'n to'qqizta jinoyat bo'yicha bir yillik viktimizatsiya darajasi bilan birga besh yillik viktimizatsiya darajasi bo'yicha natijalar keltirilgan .....	10
3-2-jadval. Jinoyat turlari bo'yicha vikimizatsiya darajalarini alohida ko'rsatadi.....	12
3-3-jadval. Besh yil va bir yil davomida mulk bilan bog'liq jinoyatlar uchun viktimizatsiya ko'rsatgichi; O'zbekistonning Farg'ona vodiysidagi jamoatchilik va mulkdorlar o'rtasidagi foiz.....	15
4-2-jadval. Tanlangan mamlakatlar va yirik shaharlarda avtoulov egalari uchun bir yillik tarqalish ko'rsatkichlari .....	23
4-4-jadval. Tanlangan so'rovlarni uchta zo'ravonlik jinoyati bo'yicha xalqaro taqqoslash. So'nggi o'n ikki oy ichida kamida bir marta viktimizatsiyaga uchragan aholining ulushi .....	26
5-1-jadval. O'zbekiston sharqida so'nggi o'n ikki oyda kamida bir marta o'n yetti turdagi jinoyatdan jabrlangan aholining viloyat, shahar yoki qishloq kesimida ulushi.....	31
6-1-jadval. Har bir jinoyat bo'yicha ichki ishlar organlariga murojaatlar soni va barcha jinoyatlar bo'yicha murojaatlarning foizi (har bir jinoyatning oxirgi voqeasi asosida) .....	36
6-2-jadval. Har bir alohida jinoyat uchun ichki ishlar organlariga xabar berish uchun ko'rsatilgan sabablar soni va barcha jinoyatlar uchun sabablarning umumiy foizi (har bir jinoyatning oxirgi hodisasi asosida).....	38
6-3-jadval. Har bir alohida jinoyat bo'yicha ichki ishlar organlariga xabar bermaslik sabablari soni va barcha jinoyatlar uchun birgalikda ko'rsatilgan sabablar foizi (har bir jinoyatning oxirgi voqeasi asosida) .....	39
6-4-jadval. Ichki ishlar organlariga qilgan murojaatingiz natijasidan qoniqdingizmi?.....	41
6-5-jadval. Nima uchun ichki ishlar organlariga murojaat sizni qoniqtirmayapti, degan savolga berilgan javoblar soni va barcha jinoyatlar bo'yicha foizlar.....	42
6-6-jadvallar. To'rt turdagi mol-mulkga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar va uchta zo'ravonlik jinoyatlari haqida murojaatlar bo'yicha ko'rsatkichlarini xalqaro taqqoslash.....	44
6-8-jadval. Tanlangan beshta jinoyat bo'yicha jabrlanuvchining ichki ishlar organlaridan qoniqish darajasini xalqaro taqqoslash. To'liq va noto'liq qoniqqanlarning foizi.....	45
7-1-jadval. 3 balli shkala bo'yicha qanchalik og'ir bo'lgan edi. Oxirgi besh yil ichida sodir bo'lgan har bir jinoyatning oxirgi voqeasi haqida so'ralgan.....	48
7-2-jadval. Voqea (oxirgi marta sodir bo'lgan) katta ta'sir ko'rsatgan beshta jinoyat bo'yicha qay darajada ta'sirlangansiz .....	50
7-3-jadval. To'rt band bo'yicha javoblar to'rt xil ta'sirga ega jinoyatdan jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq.....	51
8-1-jadval. Farg'ona vodiysida jinoyatdan qo'rqish va jazoga munosabat .....	54
8-2-jadval. Xalqaro nuqtai nazardan jinoyatchilik va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha fikrlar. (eski tadqiqotlar manbai XVT ma'lumotlar bazasi).....	55
8-3-jadval. Jinoiy odil sudlov organlari o'z vazifalarini qanchalik yaxshi bajarmoqda? .....	56
8-4-jadval. Farg'ona vodiysi, Gruziya, Qozog'iston va Qirg'izistonda jinoyatchilik tahdidlari haqidagi tasavvurlar .....	57



8-5-jadval. O'zbekistonning Farg'ona vodiysidagi jinoyatchilik tahdidlari haqidagi tasavvurlar.....	58
9-1-jadval. O'rtacha hisobda siz o'z hududingizda ischki ishlar hodimlarini piyoda patrul xizmatida tez-tez ko'rasizni? Mintaqa va shahar/qishloq hududi bo'yicha, yosh guruhi va jinsi bo'yicha kesimda.....	60
9-2-jadval. So'nggi 12 oy ichida ichki ishlar organlari bilan boshqa ro'baro' kelish holatlari, yosh va jins bo'yicha kesimda.....	60
9-3-jadval. Huquqni muhofaza qilish idoralarining masalani hal qilish usuli sizni qanchalik qoniqtirdi? Farg'ona vodiysida ichki ishlar organlari bilan yuzma yuz kelishning to'rta turi (jinoyat haqida xabar berishdan tashqari) bo'yicha foizlar to'liq va va noto'liq qoniqish darajasining yosh va jins bo'yicha kesimi .	62
10-1-jadval. So'nggi o'n ikki oy ichida kamida bir marta jabrlangan aholining ulushi .....	64
10-2-jadval. Kechasi mahallada sayr qilish davomida xatarni his qilish bo'yicha aholi foizi.....	64
10.3-jadval. O'zlariga nisbatan zo'ravonlik sodir etilganligi haqida rasmiylarga xabar bergan zo'ravonlikdan jabrlanganlarning ulushi .....	65
10-4-jadval. Mansabdor shaxslar tomonidan pora olish natijasida jabrlangan aholining ulushi.....	65

## Diagrammalar ro'yxati

4-1- diagramma. Tanlangan mamlakatlar va shaharlarda to'qqizta jinoyat uchun bir yillik viktimizatsiya darajasi.....	22
4-3- diagramma. Uchta zo'ravonlik jinoyati bo'yicha tanlangan so'rovlarni taqqoslash. So'nggi o'n ikki oy ichida kamida bir marta jabrlangan aholining ulushi.....	24
4-4- diagramma. Tanlangan mamlakatlar va asosiy shaharlarda iste'molchilarga nisbatan firibgarlik sodir etish viktimizatsiyasi darajasi bir yil davomida.....	27
4-5- diagramma. Xalqaro* kontekstda ko'cha darajasidagi korrupsiya uchun viktimizatsiya darajasining bir yillik tarqalishi.....	28
5-1- diagramma. Jins, yosh va daromad bo'yicha taqsimlangan 9 ta jinoyat bo'yicha bir yil davomida viktimizatsiya darajasining tarqalishi .....	32

# UMUMIY MA'LUMOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasining Markaziy Osiyo mintaqaviy boshqarmasi ko'magida O'zbekiston Respublikasi aholisi tajribasini o'rganish loyihasi amalga oshirildi. O'zbekiston Farg'ona vodiysi<sup>1</sup> BMT Tinchlik o'rnatish jamg'armasi "Farg'ona vodiysida yoshlar ijtimoiy totuvlik uchun" dasturi doirasida jinoyatchilik va xavfsizlik masalalari bo'yicha UNODC, BMTTD va YUNESKO bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. So'rov 2021-yilda Jinoyat qurbonlari bo'yicha xalqaro tadqiqot (ICVS)<sup>2</sup> standartlashtirilgan metodologiyasidan foydalangan holda Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarining mahalliy aholisidan tasodifiy tanlab olingan 3013 respondent o'rtasida o'tkazildi.

So'nggi besh yil ichida Farg'ona vodiysi aholisining qariyb 16,5 foizi yoki har oltitadan biri so'rovga kiritilgan o'n to'qqizta jinoyatning bir yoki bir nechtasidan jabrlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysida xususiy sektordagi firibgarlik (4,8%), iste'molchilarni aldash<sup>3</sup> (4,3%), mansabdor shaxslar tomonidan pora olish (3%) jinoyatlar ko'p uchraydi. Ikkinchi o'rinda shaxsiy mulkni o'g'irlash va o'g'irlikning o'ziga xos shakllari, masalan, velosiped o'g'irlash, avtomobil qismini

yoki avtomobil ichidagi buyumni o'g'irlash.

Talonchilik va boshqa shu kabi zo'rvonlik bilan bog'liq jinoyatlar sezilarli darajada kam uchraydi.

Farg'ona vodiysi aholisi O'zbekiston aholisini ushbu so'rovda namoyon qiladi deb hisoblasak, O'zbekiston bu so'rovdan xalqaro kontekstda "jinoyat kam sodir bo'ladigan davlat" bo'lib chiqadi. Darhaqiqat, XVT natijalarini xalqaro taqqoslashda O'zbekiston XVT o'tkazilgan eng xavfsiz mamlakatlardan biri sifatida namoyon bo'ladi (n > 90). Aholining ko'chalar xavfsizligi yoki uyiga o'g'ri tushishi xavfi haqidagi fikrlari bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalari O'zbekiston dunyodagi eng xavfsiz davlatlardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu vaziyat tufayli, fuqarolarning ko'pchiligi keyingi yillarda jinoyatchilik kamaygan va bundan keyin ham kamayib boradi degan fikrda.

Farg'ona vodiysida ichki ishlar organlariga viktimizatsiya holatlari to'g'risida xabar berish darajasi xalqaro nuqtai nazardan nisbatan past (har uchinchi jinoyatdan faqat bittasi qayd etilgan). Jabrlanganlar haqida xabar berganlarning ichki ishlar organlari faoliyatidan qoniqish darajasi ham nisbatan past. Avvalroq boshqa ko'plab sobiq sovet mamlakatlarida, jumladan, Qirg'iziston (2015),

1 O'zbekistonning uchta viloyati - Namangan, Farg'ona va Andijon

2 <https://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/Crime-Monitoring-Surveys.html>

3 Xususiy sektorda firibgarlik boshqa shaxsning mulkini aldash, xizmat ko'rsatish, foyda yoki mahsulot sotib olishni va'da qilish yo'li bilan egallab olish va shu kabi boshqa holatlarni qamrab oladi.

Savol quyidagicha ifodalanadi: "O'tgan besh yil ichida siz shaxsan tanigan va ishongan kishi tomonidan sizdan pul olib, ataylab bermay ketgan holati bo'lganmi, masalan, siz tomondan komissiya to'lovlari amalga oshirilgan bo'lsada, kreditni to'lamagan yoki sizga to'lagan xizmatni ko'rsatish va'dasini bajarmagan holatlar bo'lganmi."

Iste'molchilarni aldash (xalqaro so'rovnomada bo'yicha "consumer fraud") tovarlar, mahsulotlarning vazni kamligi, xizmatlar ko'rsatilmasligi, sifatsiz, to'liq bo'lmagan tovarlar va boshqalar bilan bog'liq savdo qoidalarini buzishni qamrab oladi. Iste'molchini aldash faqat juda ko'p miqdorni tashkil qilgan taqdirdagina jinoyat deb topilishi mumkinligini hisobga olib, respondentlar ma'muriy huquqbuzarlikni tashkil etuvchi ishlar bo'yicha murojaat qilgan bo'lishlari mumkinligini qayd etish lozim.



Qozog'iston (2018) va Gruziya (2020) da hisobot berish va jabrlanganlar qoniqish darajasining pastligi kuzatilgan.

Bu natija shuni ko'rsatadiki, jabrlanuvchilar tomonidan kam murojaat qilish va murojaatdan qoniqishning pastligi sobiq sovet mamlakatlaridagi ichki ishlar organlari ishlash uslubi bilan bog'liq.

Farg'ona vodiysida o'tgan o'n ikki oy ichida aholining 17 foizi avtomashina haydab ketayotib, olti foizi esa piyoda yurgan vaqtida ichki ishlar xodimi tomonidan to'xtatilgan. Ichki ishlar organlari tashabbusi bilan bo'lib o'tgan bunday muloqot Farg'ona vodiysida, masalan, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va AQShga qaraganda ko'proq uchraydi. Aksincha, Farg'ona vodiysidagi fuqarolarning o'zlari ichki ishlar organlariga maslahat yoki ma'lumot uchun murojaat qilganlar, bu uch G'arb davlatiga qaraganda ancha kam. Farg'ona vodiysidagi fuqarolarning ichki ishlar organlari bilan aloqasi, 2015-yilda

Qirg'iziston va 2020-yilda Gruziya kabi sobiq sotsialistik mamlakatlarda kuzatilgan vaziyatga o'xshaydi.

Jabrlanuvchilar tomonidan jinoyatlar to'g'risida xabar berishning past ko'rsatkichlari kabi, bu ko'rsatkich jamiyatga xizmat ko'rsatishdan ko'ra fuqarolarni nazorat qilishga qaratilgan ichki ishlar organlari uslubi uchun odatiy ko'rinadi.

So'rovimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysidagi zo'ravonlik jinoyati va yo'l-transport hodisalaridan jabrlanganlarning qariyb to'rttdan bir qismi uzoq muddatli ruhiy muammolarni boshdan kechiradi, ya'ni mazkur hodisaning takroran esga tushishi shundan dalolat beradi. Garchi o'g'rilikdan jabr ko'rgan shaxslar ba'zan mahalla idoralari tomonidan qo'llab-quvvatlansa-da, shu kabi og'ir jinoyatlardan jabrlanganlarning viktimizatsiya oqibatlarini bartaraf etish va travmadan keyingi stressning oldini olish uchun ixtisoslashtirilgan xizmatlardan yordam olish darajasi past.

## Natijalarning siyosatga ta'siri

- Jinoyatchilik bo'yicha tahlilchilar viktimizatsiya so'rovi natijalarini qayd etilgan jinoyatlar tendentsiyalari bilan parallel ravishda tahlil qilishlari va qayd etilgan jinoyatlardagi o'zgarishlar viktimizatsiya so'rovi natijalari bilan bog'liqligini ko'rib chiqishlari kerak.
- Bu masalani yanada chuqurroq o'rganish uchun viktimizatsiya so'rovini 2023 yoki 2024 yillarda Farg'ona vodiysida besh yil va bir yillik viktimizatsiya darajasining o'sish tendentsiyasini aniqlash uchun takrorlash kerak.
- Farg'ona vodiysida o'rganish tajribasiga tayangan holda, O'zbekistonni xalqaro jinoyatlar xaritasiga kiritish va Barqaror rivojlanish maqsadi 16.1 (zo'ravonlikni kamaytirish) monitoringi uchun tasdiqlangan so'rovga asoslangan ko'rsatkichlarni taqdim etish uchun milliy miqyosda so'rov o'tkazish kerak.
- Aholi uchun eng dolzarb muammolar xususiy sektordagi firibgarlik, iste'molchilarni aldash yo'li bilan firibgarlik sodir etish va mansabdor shaxslarning poraxo'rliqi bilan bog'liq bo'lganligi sababli, huquqbuzarliklarning oldini olish dasturlarida ushbu turdagi jinoyatlarga ustuvor ahamiyat berilishi kerak. BMT GMJBB poraxo'rlikka qarshi kurash bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar bo'yicha maslahat berishi mumkin. Dunyo miqyosida ko'payib borayotgan internet-firibgaligining oldini olishga alohida e'tibor qaratish lozim.
- Zo'ravonlik jinoyatlaridan tashqari, jiddiy jarohatlarning asosiy sababi sifatida yo'l-transport hodisalariga e'tibor qaratish lozim. Yo'l-transport hodisasi tufayli kasalxonada davolanishga yo'naltirish ehtimoli zo'ravonlik bilan sodir etilgan jinoyatga qaraganda bir necha baravar yuqori. Ushbu natija yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha samarali dasturlar zarurligini ko'rsatadi.
- Farg'ona vodiysidagi zo'ravonlik jinoyatlarining asosiy omili erkaklar tomonidan spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilishdir (jabrlanuvchilar tomonidan qilingan barcha murojaatlarning deyarli yarmi spirtli ichimliklar iste'mol qilish bilan bog'liq). Spirtli ichimliklarni iste'mol qilishda uning havfli oqibatlarini to'liq xis qilish va mas'uliyatni bo'yniga olinishini ta'minlovchi samarali vositalar jinoyatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarning bir qismi bo'lishi kerak.
- Ayollarning jinsiy tajovuz va/yoki yaqinlari tomonidan ishlatilgan zo'ravonlikdan (oilaviy zo'ravonlik) jabrlanish darajasi, albatta, xalqaro nuqtai nazardan pastligi aniqlandi. Shuni ta'kidlash kerakki, sinov tadqiqot ham, to'laqonli tadqiqot ham bu savollarni ayol respondentlar tomonidan juda nozik deb hisoblanishini ko'rsatgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, turmush qurgan ayollarning 1,5 foizi turmush qurishga majbur bo'lganini va respondentlarning katta qismi (2 foiz) o'z muhitida bolalarga nisbatan tizimli zo'ravonlik holatlariga guvoh bo'lganliklarini bildirishgan. Xotin-qizlarga qarshi jinoyatning yashirin shakllari bo'yicha ko'proq tadqiqotlar o'tkazish va faktlarga asoslangan dasturlarni joriy etish zarur.
- Gender tenglik, xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlarning teng haq-xuquqlari, ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish sohasidagi xalqaro tajribaga asoslangan, shuningdek milliy va xalqaro qonunchilikka muvofiq xabardorlikni oshirish dasturlarini amalga oshirish zarur. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (BMT GMJBB, 2014) va Gender tengligi bo'yicha Evropa instituti (EIGE) bunday ta'lim dasturlari uchun eng yaxshi xalqaro tajribalarni to'plagan (Heisecke, 2014).
- Qoniqishning yuqori darajalari va natijada xabar berishning yuqori darajasini ta'minlash ichki ishlar organlaridan jinoyatdan jabrlanganlar haqida xabar berishni qabul qilish va xizmatlarni yaxshilashni talab qiladi. Bunday takomillashtirish, barqaror boshqaruv tizimidan tashqari, ichki ishlar organlarida xizmat ko'rsatishga ko'proq yo'naltirilgan uslubda ishlashligi lozimligini ko'rsatadi.

- Ichki ishlar organlari xodimlarining xabar beruvchi fuqarolar bilan aloqalari bo'yicha eksperimental trening dasturlari Buyuk Britaniya va AQShda jabrlanganlarning qoniqish darajasini oshirishda samarali ekanligini isbotladi (Skogan, 2015).
- Aniqrog'i, ichki ishlar organlari bo'linmalari jabrlanuvchilarga ularning ishlari bo'yicha tergovning borishi to'g'risida xabar berib turish uchun ko'rsatma olishi, kerakli jihozlar bilan ta'minlanishi va o'qitilishi kerak (ma'lumot uchun 2012 yildagi Yevropa Ittifoqining jinoyatdan jabrlanganlar huquqlari bo'yicha direktivasining 6-moddasiga qarang).
- Fuqarolarning ichki ishlar organlari bilan aloqalari, asosan, ichki ishlar organlari tashabbusi bilan amalga oshirilayotganini ko'rsatuvchi so'rov ma'lumotlari ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini yaxshilash imkoniyatlarini yanada chuqur o'rganish va tanqidiy mulohaza yuritishga loyiqdir.
- Og'ir jinoyatlardan jabrlanganlar o'rtasida viktimizatsiyaning moddiy, ruhiy va huquqiy oqibatlarini bartaraf etishda yordam beradigan maxsus xizmatlarga ehtiyoj mavjud. Ularning deyarli yarmi bunday xizmatlarni olishdan xursand bo'lishlarini aytishdi. Qo'llab-quvvatlashga bo'lgan talab, ayniqsa, jabrlangan ayollar orasida seziladi. Hozirgi vaziyatda bu talab asosan qondirilmaganligicha qolmoqda. Hukumat jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun mamlakat bo'ylab maqsadli agentliklarni tashkil etishni ko'rib chiqishi mumkin. Shu munosabat bilan, hukumat jinoyat protsessida jabrlanuvchilarning mavqeini mustahkamlash va zo'ravonlik jinoyati natijasida yetkazilgan zarar uchun davlatdan tovon olish imkoniyatini ham ko'rib chiqishi mumkin (Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1985 yil)<sup>4</sup>

---

4 <https://www.ohchr.org/sites/default/files/victims.pdf>

# 1 KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi (BMT GMJBB), BMT TD va YUNESKO, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi hamkorligida amalga oshirilayotgan “Yoshlar Farg’ona vodiysida ijtimoiy totuvlik uchun” BMT Tinchlik qurish jamg’armasi dasturi doirasida O’zbekiston Respublikasi BMT Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo’yicha boshqarmasi ko’magida Farg’ona vodiysi/O’zbekiston aholisining jinoyatchilik va xavfsizlik muammolari bo’yicha tajribasini o’rganish bo’yicha loyihani amalga oshirdi. Loyiha O’zbekistonning Qirg’iz Respublikasi va Tojikiston bilan chegaradosh sharqiy qismida joylashgan Namangan, Farg’ona va Andijon viloyatlarida o’tkazildi. Loyihaning maqsadi dalillarga asoslangan siyosat uchun ma’lumot sifatida vodiydagi viktimizatsiya holati va xavfsizlik to’g’risida ob’ektiv ma’lumot to’plashdan iborat. Yig’ilgan ma’lumotlarning bir qismi, shuningdek, so’rovga asoslangan ko’rsatkichlar orqali Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadi 16.1 (zo’ravonlikni kamaytirish) amalga oshirilishidagi say-harakatlar natijasini kuzatish uchun ishlatilishi mumkin.

2021-yilda o’tkazilgan so’rov quyidagi tarkibdagi ishchi guruh tomonidan muvofiqlashtirilgan: O’zbekiston Milliy Universiteti sotsiologi Viktoriya Alekseeva, psixolog (mustaqil ekspert) Malika Hakimjanova, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi xodimlari (jinoiy odil sudlov bo’yicha ekspertlar) Oleg Kim, Durbek Turaxonov va ikki nafar xalqaro ekspertlar professor Yan van

Dayk va professor Jon van Kesteren. Guruh faoliyati Akademiya boshlig’i o’rinbosari Uygun Nigmadjanov tomonidan muvofiqlashtirilgan.

O’tkazilgan tender yakuniga ko’ra Into Reserch kompaniyasi bilan ma’lumotlar to’plash bo’yicha shartnoma tuzildi.

O’zbekistonda va boshqa joylarda qo’llanilayotgan maxsus karantin choralari munosabati bilan Ishchi guruhning muhokamalari bir qator onlayn uchrashuvlar davomida bo’lib o’tdi.

So’rovda foydalanilgan metodologiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mintaqalararo Jinoiy odil Sudlov Tadqiqot Instituti (UNICRI) bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Xalqaro Viktimizatsiya Tadqiqoti (XVT) metodologiyasidir. XVT 1990-yillardan beri dunyoning barcha mintaqalaridagi 85 dan ortiq mamlakatlarda olti bosqichda o’tkazildi, ta’kidlash lozimki mazkur so’rovlarda ko’plab davlatlar bir necha bor qatnashishgan (Van Kesteren, Van Dayk va Meyhyu, 2014). O’tkazilgan barcha so’rovlarning to’liq sharhi Eilovasida keltirilgan. Bir qator mamlakatlarda, jumladan Bolgariya, Estoniya, Yaponiya, Braziliya va Shveytsariyada XVT jinoyatchilik bo’yicha muntazam milliy so’rov sifatida qabul qilingan. So’nggi o’n yil ichida XVT o’n sakkizta mamlakatda, jumladan Qirg’iz Respublikasida (GORBI, 2015), Qozog’istonda (Yevropa Ittifoqi/EUCJ, 2018) va Gruziyada (EUC, 2021) takroran o’tkazildi.

O’zbekistonning Farg’ona vodiysida o’tkazilgan ushbu tadqiqot O’zbekistonda birinchi o’tkazilgan to’laqonli viktimizatsiya so’rovi bo’ldi.

## 1.1 XVT haqida ma'lumot

An'anaga ko'ra, jinoyatchilik darajasi va tendentsiyalari to'g'risidagi bayonotlar sudlar yoki ichki ishlar organlarin tomonidan qayd etilgan jinoyatlar bo'yicha ushbu muassasalarning ma'muriy statistikasiga asoslanadi. Bunday rasmiy jinoyat ko'rsatkichlariga ichki ishlar organlari yoki sudlar tomonidan aniqlanmagan va ro'yxatga olinmagan (jinoyatlarning yashirin soni deb ataladigan) jinoyatlar kirmasligi hamisha ma'lum bo'lgan. Bundan tashqari, qayd etilgan jinoyatlar darajasining o'zgarishi sodir etilgan jinoyatlar sonining real o'zgarishini yoki qonunga kiritilgan o'zgarishlarni, ichki ishlar organlarining jinoyatni ochishdagi sa'y-harakatlarini, jinoyatlar haqida jamoatchilik tomonidan ichki ishlar organlariga xabar berishni yoki qayd etish amaliyotini aks ettirishi ham har doim ma'lum bo'lib kelgan. Jinoyat haqidagi rasmiy ma'lumotlarning qo'shimcha kamchiligi shundaki, jinoyatlarning huquqiy ta'riflanishi, ichki ishlar organlarining ishlash usullari, hisobot shakllari va ro'yxatga olish amaliyotidagi farqlar tufayli ularni xalqaro qiyosiy maqsadlarda qo'llash mumkin emas. (FRA, 2021).

Jinoyatchilik keltirib chiqaradigan muammolar bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'plash uchun, jalb qilingan davlat muassasalaridan mustaqil ravishda, AQSh federal hukumati 1970-yillarda keng jamoatchilik vakillari o'rtasida turli jinoyatlar bilan bog'liq shaxsiy yoki kundalik tajribalari bo'yicha keng ko'lamli yillik so'rovlarni boshladi. (jinoyat viktimizatsiyasi bo'yicha so'rovlar) (Skogan, 1981). Bir qancha Yevropa davlatlari, jumladan, Niderlandiya va Buyuk Britaniya ham tez orada shu izdan bordilar va jinoyatlardan jabrlanganlar bo'yicha milliy so'rovlarini boshladilar. Ayni paytda Amerika va Yevropaning ko'pgina mamlakatlari jinoyatchilik tendentsiyalarini kuzatish uchun muntazam ravishda milliy jinoyat viktimizatsiyasi bo'yicha so'rovlarini o'tkazmoqda.

Metodologiyadagi farqlar tufayli milliy so'rov natijalarini bir-biri bilan solishtirish qiyin. 1980-yillarning oxirida bir guruh evropalik ekspertlar Evropadagi mavjud so'rovlarining umumiyasoslarini

aks ettiruvchi so'rovnomadan foydalangan holda qiyosiy xalqaro so'rov o'tkazishga qaror qilishdi, Xalqaro Viktimizatsiya tadqiqoti (Van Dayk, Meyhyu va Killias, 1990).

Viktimizatsiya so'rovlarining maqsadi ichki ishlar organlaridan mustaqil ravishda aholining turli, tez-tez sodir bo'ladigan jinoyat turlari bo'yicha viktimizatsiya darajasani o'lchashdan iborat. Respondentlarning aksariyati huquqiy atamalarni bilmagani uchun jinoyatlar oddiy tilda, so'zlashuv tilida ta'riflanadi. (masalan, "kimdir haqiqatda uyingizga ruxsatsiz kirib, o'g'irlik sodir etganmi yoki biror narsani o'g'irlamoqchi bo'lganmi"). Odatda, bunday so'rovlar aniqlangan jabrlanuvchilardan o'zlari yoki boshqa birov ichki ishlar organlariga voqea haqida xabar berganmi yoki yo'qmi, qanday sababga ko'ra, shuningdek, jamoat xavfsizligi va ichki ishlar organlari ishi haqida tasavvurlari haqida so'raladi.

Garchi tavsiflar milliy jinoiy kodekslarda belgilangan umumiy jinoyatlarning asosiy elementlarini aks ettirgan bo'lsa-da, xabar qilingan barcha hodisalar sudda to'liq huquqbuzarlik sifatida tasniflanishiga ishonch yo'q. Bunday so'rovlar natijalari, odatda, jinoyatchilik va jamoat xavfsizligi to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlarni to'ldiradigan muhim ma'lumot manbai sifatida qaraladi. AQSh Federal Qidiruv Byurosining (FQB) politsiyaning jinoyatlar bo'yicha statistikasi va viktimizatsiya so'rovlari natijalari to'g'risidagi bayonotida aytilishicha:

*"Ushbu dasturlarning har biri mamlakatdagi jinoyatchilik muammosining jihatlariga haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Jinoyat haqida yagona hisobot (UCR) va XVT dasturlari turli maqsadlarga ega bo'lganligi, turli usullardan foydalanganligi va jinoyatning boshqa jihatlariga e'tibor qaratganligi sababli, ular birgalikda ishlab chiqaradigan bir-birini to'ldiruvchi ma'lumotlar milliy jinoyatchilik muammosini yolg'iz o'zi ishlab chiqarishga qaraganda kengroq tushunish imkonini beradi. (FQB, 2013)".*

Bundan tashqari, XVT kabi standartlashtirilgan viktimizatsiya so'rovlari qiyosiy xalqaro nuqtai nazardan jinoyat darajasi to'g'risida yagona ishonchli ma'lumot manbai hisoblanadi (Lynch, 2006).

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadi 16 "barqaror rivojlanish uchun tinch va inklyuziv jamiyatlarni rag'batlantirish, barcha uchun adolatni ta'minlash va barcha darajadagi samarali, hisobdor va

inklyuziv muassasalarni yaratish" ga qaratilgan. Maqsad 16.1 - hamma joyda zo'ravonlikning barcha shakllari va ular bilan bog'liq o'limlarni kamaytirish. BRM ko'rsatkichlari bo'yicha idoralararo va ekspertlar guruhi (IAEG-SDGs) BRM 16 ga erishishdagi taraqqiyot ko'rsatkichlari to'plamini ishlab chiqdi, shu jumladan to'rttasi XVT<sup>5</sup> kabi viktimizatsiya so'rovlariga asoslangan. Ushbu so'rov natijalari bo'yicha ushbu hisobotda BRM 16 ning tegishli ko'rsatkichlariga alohida e'tibor beriladi.

---

5 Ko'rsatkich 16.1.3: O'tgan 12 oy ichida (a) jismoniy zo'ravonlik, (b) psixologik zo'ravonlik va (c) jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lgan aholining nisbati

- 16.1.4-ko'rsatkich: O'zini yashaydigan hududda yolg'izi xavfsiz his qiladigan aholi ulushi"
- 16.3.1-ko'rsatkich: So'nggi 12 oy ichida vakolatli organlarga yoki boshqa rasman tan olingan nizolarni hal qilish mexanizmlariga o'zlarining jabrlanganligi haqida xabar bergan zo'ravonlik jinoytidan jabrlanuvchilarning nisbati
- 16.5.1-ko'rsatkich: Davlat amaldori bilan kamida bir marta aloqada bo'lgan va davlat mansabdor shaxsiga pora bergan yoki oldingi 12 oy davomida ushbu mansabdor shaxslardan pora olgan shaxslarning nisbati



# 2 METODOLOGIYA

## 2.1 So'rovnoma



So'rov Xalqaro Viktimizatsiya tadqiqotining standartlashtirilgan metodologiyasidan foydalangan holda Sharqiy O'zbekistonning mahalliy aholisi ichidan tasodifiy tanlangan 3013 respondentdan iborat vakillik namunasi o'rtasida o'tkazildi. (XVT).

XVT so'rovnoma birinchi navbatda uy xo'jaliklariga ta'sir qiladigan jinoyat turlari, masalan, transport vositalari bilan bog'liq jinoyatlar va maishiy o'g'irliklar bo'yicha bir qator savollarni so'raydi va individual javob beruvchiga ta'sir qiladigan jinoyatlar

(masalan, zo'ravonlik jinoyatlari, talonchilik, cho'ntak kesish va pora olish va berish) bo'yicha savollar bilan davom etadi.

Respondentdan birinchi navbatda so'nggi besh yil ichida jabrlanganmi yoki yo'qligi so'raladi. Ijobiy javob berganlardan, bu so'nggi o'n ikki oy ichida yoki undan ko'proq vaqt oldin sodir bo'lganmi, deb so'raladi. Shunday qilib, respondentlarning so'nggi o'n ikki oy ichida ancha oldin sodir bo'lgan voqealarni eslatib o'tishlari oldini oladi (bu hodisa vaqtni oldinga teleskop qilish deb ataladi).

Besh yillik ma'lumot davri haqida so'rashning qo'shimcha afzalligi shundaki, ko'proq jabrlanganlarning aniqlanishi va ularning viktimizatsiya darajasi haqida navbatdagi savollar berilishi mumkin.

XVT bo'yicha hisobotlarda, asosiy natijalar tarqalish ko'rsatkichlari, ya'ni uy xo'jaligi a'zosi yoki jismoniy shaxs sifatida tegishli ravishda besh yil va bir yil davomida kamida bir marta jinoyatning ma'lum bir turi yoki jinoyatlar yig'indisidan jabrlangan aholining foizlari sifatida taqdim etiladi. Bir yillik keng tarqalish ko'rsatkichlari odatda eng aniq hisoblanadi, chunki besh yillik ko'rsatkichlar esdan ko'tarilishi tufayli noaniq bo'ladi (ko'p yillar oldin sodir bo'lgan voqealar esdan chiqadi).

Ishlatilgan so'rovnoma, aytilishicha, XVTning eng so'nggi, har tomonlama sinovdan o'tgan versiyasiga asoslangan edi. Ushbu so'rovnomaning asosiy qismi so'nggi yigirma yil ichida boshqa G'arb mamlakatlarida ilgari qo'llanilgan so'rov bilan bir xil (Van Dayk, Van Kesteren va Smit, 2007; Van Dayk va Chanturia, 2012)

Ushbu standart so'rovnomanadan foydalanish boshqa mamlakatlarning keng tanlovi natijalari bilan taqqoslash mumkinligini ta'minlaydi. So'rovnoma mintaqada, jumladan Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston va Gruziyada o'tkazilgan so'nggi so'rovlarda bo'lgani kabi, jinoyat haqida xabar berishdan tashqari fuqarolarning ichki ishlar organlari bilan muloqotiga oid savollar bilan kengaytirildi. Voqea sodir bo'lganligi haqida xabar bergan shaxslarga qo'yilgan keyingi savollarga ixtisoslashtirilgan yordamning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyati, jinoyatlarning og'irlik darajasi va doimiy emotsional muammolar haqidagi savollar kiradi. Ishchi guruh bilan maslahatlashgan holda, korrupsiya va bolalarga shavqatsiz munosabat zo'ravonligining turli shakllari bilan bog'liq tajribalar haqida yangi savollar qo'shildi. Shuningdek, xususiy sektordagi firibgarlik bo'yicha savol qo'shildi.

So'rovnomaning sxematik ko'rinishini E ilovasida topish mumkin. Foydalanilgan to'liq so'rovnomaning [www.XVT-crime](http://www.XVT-crime) saytida topish mumkin. Yevropa Ittifoqi/O'zbekiston ingliz, rus va o'zbek tillarida.

## 2.2 Intervyu usuli

Viktimizatsiya so'rovlari boshidanoq ma'lumotlar yig'ishning turli shakllaridan foydalangan holda o'tkazildi. XVT o'tmishda shaxsiy intervyu, qog'oz so'rovnoma yordamida o'tkazilgan shaxsan intervyu (PAPI), intervyu oluvchilar tomonidan oldindan dasturlashtirilgan planshetlarda o'tkaziladigan shaxsan intervyu (CAPI) usullari yordamida o'tkazilgan, rivojlangan mamlakatlarda esa avtomatlashtirilgantelefon orqali intervyu (CATI) usuli bilan o'tkazilgan. Tahlillar viktimizatsiya darajasi va boshqa natijalar asosan PAPI va CATI kabi intervyu usullaridan foydalanishga bog'liq emasligini ko'rsatdi (Van Kesteren, Aebi va Van Dayk, 2009; Meyhyu & Van Dayk, 2011). Viktimizatsiya so'rovlarida rejim ta'siri bo'yicha adabiyotlarni ko'rib

chiqish uchun Yevrostat hisobotiga ham qarang (Eurostat, 2017). O'zbekiston sharqida ma'lumotlar to'plash shaxsiy suhbat, va PAPI yordamida amalga oshirildi.

Ayol respondentlar uchun jinsiy aloqa qiladigan hamkorlar orasidagi jinsiy zo'ravonlik va jinsiy ta'qib kabi nozik masalalar bo'yicha savollar to'plami ayol respondentlar uchun maxsus modul sifatida birlashtirildi. Suhbatlar ayol va erkak intervyu oluvchilar tomonidan o'tkazildi, shunda ayol respondentlar faqat ayol intervyu oluvchilar tomonidan intervyu berdilar. Ja'mi intervyu oluvchilarning to'rtidan bir qismi erkaklar edi (2.1-jadvalga qarang).

## 2.3. Joylarda so'rovnoma o'tkazishga tayyorgarlik


So'rovnoma O'zbek va rus tillariga tarjima qilingan.

Loyiha uchun so'rovnoma o'tkazish bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega intervyu oluvchilar tanlab olindi. Intervyu oluvchilar va supervayzerlar uchun jami uchta trening mashg'ulotlari o'tkazildi. 2021-yil 5-oktabr kuni Farg'ona shahrida uchta supervayzer va 30 nafar intervyu oluvchi ishtirokida bitta trening o'tkazildi. Andijon va Namangan shaharlarida viloyatning tegishli rahbarlari va jalb qilingan intervyu oluvchilar uchun ikkita trening o'tkazildi. Hammasi bo'lib 3 nafar supervayzer va 79 nafar intervyu oluvchi ushbu loyiha bo'yicha treningdan o'tdi.

Trening davomida quyidagi masalalar muhokama qilindi:

- Tadqiqot strategiyasi va maqsadini tushuntirish
- Namuna olishning spetsifikatsiyasini tushuntirish va so'rovnomanini to'ldirish
- So'rovnomadagi har bir savolning mazmuni va ma'nosi
- Viktimizatsiya tajribasi bo'yicha tadqiqotlarga ta'sir etuvchi psixologik omillarni muhokama qilish
- Joylarda so'rovnoma o'tkazishni tashkil etish bo'yicha savollar

### 2.1-jadval. Ma'lumotlar yig'ishda intervyu beruvchilarning ishtiroki haqida umumiy ma'lumot beradi.



O'rtacha bitta intervyu oluvchi 38 ta intervyu o'tkazdi.

Suhbatlarning o'rtacha davomiyligi 29 daqiqani tashkil etdi. Ba'zi qo'shimcha

savollar qo'shilganligini hisobga olsak, bu muddat boshqa XVT tadqiqotlaridagi o'rtacha sarflangan vaqtga teng. Respondentlar juda kamdan-kam hollarda intervyular davomida to'xtatildilar.

## 2.4 Namuna olish tartibi

So'rovning umumiy hajmi 3600 ta uy xo'jaligini tashkil etdi, bu jarayonda 18 yosh va undan katta bo'lgan 3013 respondent javob berdi. Namuna olish bir necha bosqichda o'tkazildi. Birinchidan, namuna viloyat va aholi punkti turi (qishloq yoki shahar) kesimida olindi. Bu Statistika boshqarmasining 2020 yil uchun demografik ma'lumotlaridan foydalangan holda o'n ikki yo'nalish bo'yicha kesimlashtirilishiga olib keldi. Ushbu 12 kesimning har biri uchun mahallalar aholi soniga mutanosib ravishda tanlab olindi. Ushbu tanlangan mahallalar ichida uy xo'jaliklari belgilangan boshlang'ich nuqtadan tasodifiy tanlangan.

Uyda doimiy yashovchi 18 yosh va undan katta yoshdagi barcha kattalar suhbatdan o'tishlari mumkin edi. Muayyan uy xo'jaligiga kelganlarida, intervyu oluvchilar 18 yoshga to'lgan va uy xo'jaligida doimiy yashovchi, intervyu oluvchining tashrifi paytida uyda hozir bo'lishidan qat'iy nazar barcha shaxslarning ismlari, jinsi va yoshini so'rashdi. Ushbu ma'lumot Kish to'plamiga kiritilgan, uning asosida respondent tasodifiy tanlangan. Shunday qilib, barcha uy xo'jaliklari a'zolari yoshi va jinsidan qat'i nazar, suhbatga saralanishda teng imkoniyatga ega bo'ldilar.

## 2.5 Joylarda so'rov o'tkazish va javob olish darajasi

So'rovnoma 2021-yil sentabr/oktabr oylarida submintaqa, yoshi, jinsi va turar-joy turi kesimida 50 kishi o'rtasida sinovdan o'tkazildi. Aniqlanishicha, qishloq joylaridagi respondentlar so'rovning maqsadlariga nisbatan ko'proq shubha bilan qarashadi va ba'zida mumkin bo'lgan oqibatlardan xavotirlanishadi. Bundan tashqari, oila a'zolari ko'pincha xonadondagi yosh ayollar bilan suhbat paytida hozir bo'lishni xohlashlari aniqlandi. Bunday hollarda intervyu oluvchilar yosh ayollarni uyning hovlisida suhbatga taklif qilishdi. Boshqa joylarda o'tkazilgan ko'plab XVT so'rovlarida bo'lgani kabi, eng muammoli savol jinsiy hodisalarga oid savol bo'ldi.

Tajriba suhbatlari ba'zi savollarni shakllantirishda noaniqliklarni aniqlashga yordam berdi, bu esa ba'zi tuzatishlar kiritilishiga olib keldi.

Aktual ma'lumotlarni yig'ish jarayoni 2021-yilning noyabr va dekabr oylarida bo'lib o'tdi. Bu shuni anglatadiki, so'nggi o'n ikki oy davomida viktimizatsiya bilan bog'liq tajribalar taxminan 2021 yilga tegishli.

Suhbat uchun tanlangan respondentlarning 84 foizi suhbatdan o'tishga rozi bo'lgan va 9 foizi uy xo'jaligi darajasida yoki respondentni tanlagandan keyin rad etgan. Tanlangan respondentlarning yana 7% i uyda emas edi. 84% umumiy javob darajasi boshqa mamlakatlarda XVTga asoslangan oldingi so'rovlarning o'rtacha darajasidan ancha yuqori (Meyhyu va Van Dayk, 2011).

## 2.6 Ma'lumotlarni boshqarish, javoblarni ko'rib chiqish, tahlil qilish va taqdimoti

Har bir suhbat davomida olingan javoblar o'qish uchun hech qanday ma'lumotsiz kompyuter fayliga kiritildi, va ushbu javoblar alohida respondentlarni kuzatish uchun ishlatilishi mumkin. Ma'lumotlarni kiritish mantiqiy xatolarni tozalash tartibini o'z ichiga oladi. Masalan, avtomashinasi bo'lmagan respondentlar avtomashina bilan bog'liq jinoyatlar haqida ma'lumot bera olmaydilar va bunday javoblar e'tiborga olinmaydi.

Aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, aktual aholi bilan solishtirganda, namunadagi alohida guruhlarining ortiqcha/kam vakilligini qoplash uchun ma'lumotlar qayta o'lchandi. Biz boshqa mamlakatlardagi XVT ma'lumotlar to'plamida qo'llanilgan bir xil o'lchash tartibini qo'lladik. O'lchash tartibi A-3 ilovasida tushuntirilgan. O'lchash tartibi kiritilganligi sababli, ushbu hisobotda o'lchashtan keyin keltirilgan natijalar hech qanday o'lchov qo'llanilmagan yoki turli o'lchov qo'llanilmagandagi natijalardan biroz farq qilishi mumkin. Ishonamizki, qo'llaniladigan qayta o'lchash tartibi namunani ko'proq vakillik darajasini ta'minlaydi va aholining haqiqiy soniga yaqinroq natijalar beradi.

Biz mazkur hisobot davomida individual o'lchovlarni qo'lladik.

Ushbu hisobot uchun biz faqat chastotalar va foizlar kabi to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlarni tahlil qilish vositalaridan foydalandik. Shuning uchun natijalarga statistik dasturiy ta'minotni tanlash ta'sir qilmaydi. Ma'lumotlar bazasi SPSS formatida bo'lib, uni SAS, BMDP yoki PSPP kabi turli xil dasturiy paketlar bilan o'qish va ishlatish mumkin.

Biz ushbu hisobotda asosan foizlarni, masalan, jinoyatlardan jabrlanganlarning foizlarini taqdim etamiz. Biroq, javoblar soni juda kam bo'lgan keyingi savollar uchun biz ba'zan chastotalarni taqdim etamiz. Bu butun aholi uchun asossiz umumlashtirishdan qochishdir. Buni, agar kerak bo'lsa, matnda eslatib o'tamiz.

Biz namunaviy xisob-kitoblarning ishonchligini keyingi bobda, 3-izohda va C ilovasida batafsilroq muhokama qilamiz.

# 3 VIKTIMIZATSIYA DARAJASI

Standart XVT so'rovnoma to'qqiz turdagi umumiy jinoyatlarning asosiy to'plami bilan yaqinda o'tkazilgan tajriba bo'yicha savollarni o'z ichiga oladi. To'qqizta jinoyatning ushbu ro'yxati yillar davomida XVTda doimiy ravishda qo'llanilgan. Bu jinoyatlar: transport vositasini olib qochish, avtomashinadan buyumni og'irlash, mototsikl o'g'irlash, velosiped o'g'irlash, maishiy o'g'irlik, shaxsiy mulkni o'g'irlash (jumladan, cho'ntak kesish), talonchilik, zo'ravonlik/tahdid va jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar (O'zbekistonda faqat ayollarga nisbatan). Ta'kidlanganidek, ushbu to'qqizta asosiy jinoyat xalqaro nuqtai nazardan umumiy jinoyatlarning asosiy qismini ifodalaydi.

Natijalarning solishtirilish uchun barcha to'qqizta jinoyat, shu jumladan, O'zbekistonda hozirgi paytda unchalik ahamiyatsiz bo'lishi mumkin bo'lgan transport vositasini olib qochish ham kiritilgan. Ushbu to'qqizta asosiy jinoyatlarga chorva mollarini o'g'irlash, qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlash, shaxsiy hayot daxlsizligini buzish, iste'molchilarga nisbatan firibgarlik<sup>6</sup>, xususiy sektordagi firibgarlik<sup>7</sup> va korruptsiya (xususiy shaxs yoki davlat mansabdorlari tomonidan pora olish)<sup>8</sup> qo'shilgan. Shuningdek, jarohatlarga olib keladigan yo'l-transport hodisalaridan jabrlanish bo'yicha savol qo'shildi. Hammasi bo'lib o'n to'qqiz xil turdagi jinoyatlar, jumladan, yo'l-transport hodisalaridan jabrlanish to'g'risida ma'lumotlar yig'iladi.

---

6 Bu savol quyidagicha shakllantirildi: "Endi mavzuni o'zgartiradigan bo'lsak, so'nggi besh yil ichida siz o'zingiz iste'molchi sifatida firibgarlikdan jabr ko'rdingizmi? Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, siz mahsulot sotib olganingizda yoki xizmat uchun pul to'laganingizda, sotilayotgan mahsulotlar yoki ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati, miqdori yoki narxi bo'yicha aldanganmisiz? Ushbu holat siz do'konda, bozorda, sotuvchidan yoki Internet orqali biror narsa sotib olganingizda sodir bo'lishi mumkin edi.

7 Firibgarlik haqidagi savol quyidagicha shakllantirildi: "Oxirgi besh yil ichida siz shaxsan tanigan va ishongan odam sizni qasddan pulga aldaganmi, masalan, qarzni to'lamagan yoki siz to'lagan xizmatni ko'rsatish va'dasini bajarmagan?"

8 Hujumlar va tahdidlar haqidagi savol ikkita alohida savolga bo'lingan, biri notanish odamlar bilan bog'liq voqealar va ikkinchisi yaqin odamlar (sizga tanish odamlar) bilan bog'liq hodisalar haqida. Bu savollar maxsus modul doirasida ayol respondentlarga berildi. Viktimizatsiya darajasi to'rtta savolga berilgan javoblarning umumlashtirilgan natijasiga asoslanadi. Jinsiy erkinlik bilan bog'liq hodisalar haqidagi savollar faqat ayol respondentlarga berilgan va maxsus modulga joylashtirilgan


### 3.1 Viktimizatsiyaning keng tarqalishiga oid natijalar

Respondentlardan birinchi navbatda so'nggi besh yil ichida jinoyat turlari bo'yicha viktimizatsiya darajasi haqida so'raladi. Ijobiy javobdan so'ng oxirgi o'n ikki oy ichida sodir bo'lgan voqea so'raladi. Umumiy viktimizatsiya darajalari xalqaro taqqoslash uchun XVTda to'qqizta jinoyat turining asosiy to'plamini tashkil etuvchi jinoyat turlari, shuningdek, ushbu so'rovnomaga kiritilgan barcha o'n to'qqiz turdagi jinoyatlar uchun hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, to'qqizta asosiy jinoyat dastlab o'sha paytdagi Evropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida jinoyat viktimizatsiyasi bo'yicha xalqaro so'rovlar

(XVT)ga kiritilgan jinoyatlarning umumiy asosini aks ettiruvchi sifatida tanlangan (Van Dayk va boshq., 1990). XVTning keyingi bosqichlarida XVT asosidagi so'rovnomaga pora olish/korrupsiya, iste'molchilarni firibgarlik yo'li bilan aldash, chorva mollarini o'g'irlash, shuningdek, yo'l-transport hodisalari kabi jinoyatlarning boshqa turlari qo'shildi. Ushbu so'rovnomaga qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlash, xususiy mulkka daxl qilish va aldash kabilar ham qo'shilgan. So'rovnomadagi ba'zi o'zgarishlar tufayli, boshqa qo'shimcha savollar qo'shilmagan. Ushbu sababdan faqat besh yil davomida keng tarqalish darajasini hisoblash mumkin edi.

**3-1-jadval. To'qqizta asosiy jinoyat va jami o'n to'qqizta jinoyat bo'yicha bir yillik viktimizatsiya darajasi bilan birga besh yillik viktimizatsiya darajasi bo'yicha natijalar keltirilgan.**



Oxirgi besh yil ichida Sharqiy O'zbekiston aholisining 7,3 foizi XVTga kiritilgan to'qqizta asosiy jinoyatlardan biri yoki bir nechta tomonidan bir yoki bir necha marta jabrlangan. Barcha jinoyatlar va yo'l-transport hodisalari uchun besh yillik viktimizatsiya darajasi 16,5% ni tashkil qiladi.

So'nggi o'n ikki oy ichida 3,2% to'qqizta asosiy jinoyatlardan biri yoki bir nechta va 6,6% aldashdan tashqari o'n to'qqizta jinoyatdan bir yoki bir necha marta jabrlangan.

Taqdim etilgan ko'rsatkichlar tasodifiy xatolik chegaralariga ega bo'lgan tanlamaga asoslangan taxminlardir<sup>9</sup>. Namuna hajmi 3000 ga teng bo'lsa, barcha jinoyatlar bo'yicha besh yillik viktimizatsiya darajasi 16,5%, aholi orasida haqiqiy ko'rsatkich 15,4% dan 17,6% gacha bo'lgan 90% ehtimollik mavjudligini anglatadi.

1jadvalda to'qqizta asosiy jinoyat bo'yicha bir yillik jami viktimizatsiya darajasi 6,6% ko'rsatilgan. Namuna hajmi 3000 bo'lsa, xato chegarasi 0,7% ni tashkil qiladi. Bu shuni anglatadiki, O'zbekistonning Farg'ona vodiysi aholisida ushbu to'qqizta jinoyat uchun "haqiqiy" viktimizatsiya darajasi 5,9% dan 7,3% gacha bo'lishi ehtimoli 90% tashkil qiladi.

Besh yillik viktimizatsiya darajasi bir yillik ko'rsatkichdan besh baravar kam ekanligi ajablanarli emas. Bu turli xil ma'lumot davrlaridan foydalangan holda viktimizatsiya so'rovlarida keng tarqalgan topilmadir (shuningdek qarang: FRA, 2021). Bu, asosan, respondentlarning bir yildan ko'proq vaqt oldin sodir bo'lgan kichik jinoyat voqealarini unutishi bilan bog'liq ("xotiraning pasayishi"). Shu sababli, bir yillik ko'rsatkichlar odatda viktimizatsiya tarqalishining aniqroq o'lchovi sifatida qabul qilinadi.

---

<sup>9</sup> Ushbu hisobotda keltirilgan viktimizatsiya foizlari yoki darajalari namunaviy hisob-kitoblari o'lchanayotgan "haqiqiy" aholi qiymatiga ko'proq yoki kamroq yaqin. Og'ishning o'lchami namunaning hajmiga, topilgan foizga va tanlangan ishonchlilik darajasiga bog'liq. XVT hisobotlarida ishonchlilik darajasi 90% tanlanadi. Ilova C bu xato chegaralarini boshqako'rsatkich va namuna o'lchamlari uchun qanday hisoblash mumkinligini ko'rsatadi



## 3.2 Tanlangan jinoyatlar bo'yicha viktimizatsiya darajasi

3-2-jadval. Jinoyat turlari bo'yicha viktimizatsiya darajalarini alohida ko'rsatadi.

	Besh yillar %	Oxirgi 12 oy %		Besh yillar %	Oxirgi 12 oy %
Barcha jinoyatlar	14,4	6,6	<i>individual viktimizatsiya</i>		
To'qqiz jinoyat *	7,3	3,2	Shaxsiy mulkni o'g'irlash	2,4	1,4
<i>Transport vositalari bilan bog'liq jinoyatlar</i>			- <i>Kissavurlik</i> **	1,3	0,8
Avtomobil qismini o'g'irlash	1,4	0,4	Iste'molchilarni aldash	4,3	2,1
Mototsikl o'g'irlash			Firibgarlik	4,8	--
Velosiped o'g'irlash	1,4	0,4	Poraxo'rlik	3,0	1,5
<i>Uy-joyga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan og'irlik</i>			Yo'l-transport hodisasi	2,1	0,5
Chorva mollarini o'g'irlash	0,3	0,1	<i>Zo'ravonlik jinoyatlari</i>		
Qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlash			<i>Talanchilik</i>	0,3	0,1
Uy-joyga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan og'irlik	1,2	0,5	Ayollar: jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar	0,1	
Uy-joyga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etishga suiqasd	0,6	0,2	- <i>Jinsiy tajovuz</i> **	0,1	
Turar joyi daxlsizligini buzish	0,6	0,4	Hujum va tahdid ***	1,3	0,5
			- <i>Hujumlar</i> **	0,8	0,3

\* To'qqizta jinoyat - avtomobil o'g'irlash, avtomashina qismini o'g'irlash, mototsikl o'g'irlash, velosiped o'g'irlash, o'g'irlik, talonchilik, shaxsiy mulkni o'g'irlash, ayollarga nisbatan jinsiy jinoyatlar, hujum va tahdid. Ushbu elementlar loyiha boshidanoq XVTda bo'lgan va xalqaro taqqoslash uchun ishlatiladi

\*\* Cho'ntak kesish, jinsiy tajovuz va tajovuz "nima bo'lgan"ligi bo'yicha tegishli bandlar yordamida hisoblanadi.

\*\*\* Hujum va tahdid 4 ta alohida savoldan iborat

Umumiy ko'rinish 3.2-jadvalda keltirilgan. O'zbekistonning Farg'ona vodiysida xususiy sektorda firibgarlik, iste'molchilarni aldash, poraxo'rlik eng ko'p uchraydigan jinoyat turlari ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchi o'rinda shaxsiy mulkni o'g'irlash va o'g'irlikning o'ziga xos

shakllari, masalan, velosiped o'g'irlash yoki avtomobil qismini yoki avtomobil ichidagi buyumni o'g'irlash.

Zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar, jumladan, talonchilik va jinsiy jinoyatlar kamroq uchraydi.

Keyingi paragraflarda biz birinchi navbatda shaxsiy mulkni o'g'irlash va iste'molchilarni aldash kabi shaxsiy viktimizatsiya bilan bog'liq jinoyatlarni, so'ngra transport vositalari bilan bog'liq jinoyatlar, o'g'irlik va huquqbuzarliklarni muhokama qilamiz. Ushbu bo'limni zo'ravon jinoyatlar natijalarini taqdim etish bilan yakunlaymiz. Iloji bo'lgan

hollarda, viktimizatsiya tafsilotlari haqida ham xabar beramiz. Viktimizatsiyaning keng tarqalishi bo'yicha natijalar 4-bobda qiyosiy, xalqaro nuqtai nazardan taqdim qilinadi. Jabrlanganlar voqea haqida ichki ishlar organlariga xabar berganmi yoki yo'qmi va jabrlanuvchilarning viktimizatsiyaga bo'lgan boshqa reaksiyalari 5-bobning mavzusidir.

### 3.3 Shaxsiy mulkni o'g'irlash, iste'molchilarni aldash va firibgarlik natijasida viktimizatsiyaga uchrash

XVT tomonidan qamrab olingan turli jinoyat turlaridan iste'molchilarni aldash - maxsulotlar yoki xizmatlarning narxi yoki sifati bilan aldash deb ta'riflangan - ko'p mamlakatlarda jinoyatning eng keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Bu holat Farg'ona vodiysi, O'zbekistonda ham kuzatilgan: so'nggi o'n ikki oyda respondentlarning 2,1 foizi firibgarlik holatiga duch kelgan, besh yil ichida esa 4,2 foizi. Boshqa joylarda bo'lgani kabi, aksariyat holatlar maxsulotlar sotib olishda sodir bo'ladi. Internetdagi tranzaksiya paytida mazkur jinoyatning faqat kichik bir qismi sodir bo'lgan. Bu nisbat boshqa ko'plab mamlakatlarda, shu jumladan so'nggi yillarda Gruziyada sezilarli darajada oshdi (Van Deyk, Chanturia va Glonti, 2021).

Firibgarlik 5 yillik eng yuqori ko'rsatkichga ega

ya'ni 4,8%; tushuntirilganidek, bu jinoyat uchun bir yillik ko'rsatkichlar mavjud emas. Firibgarlarning yarmidan ko'pi jabrlanuvchining tanishlari, uchdan bir qismi esa notanish odamlardir. Qolganlari qarindoshlari, davlat xizmatchilari yoki xizmat ko'rsatish soxasidagilar edi.

Shaxsiy mulkni o'g'irlash bir yillik ko'rsatkich 1,2% va besh yillik ko'rsatkich 2,4% ni tashkil etdi. Keyingi savol jabrlanuvchi o'g'irlangan maxsulotlarni yonida olib yurganmi yoki yo'qligini so'raydi (bu cho'ntak kesish holatlariga olib keladi). Bu o'g'irliklarning yarmidan ko'pi cho'ntak kesish bilan bog'liq. O'g'irlik viktimizatsiyasiningrining to'rttdan bir qismi uyda, 57 foizi yashaydigan mahallasida va 13 foizi mamlakatning boshqa joylarida sodir bo'lgan. Uch foizi chet elda bo'lgan.

### 3.4 Avtotransport vositalarini o'g'irlash, chorva mollarini o'g'irlash va qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlash

Farg'ona vodiysida kam uchraydigan jinoyat turlaridan bugungi kunda avtomashina va mototsikl o'g'irlash kiradi. Darhaqiqat, biz namunamizda faqat bitta avtomashina o'g'irlash jinoyatidan jablangan shaxsni va bitta mototsikl o'g'irlash holatini aniqladik. Velosiped o'g'irlash, avtomobil qismini o'g'irash yoki avtomobil salonidagi buyumni o'g'uirlash jinoyatlari biroz keng tarqalgan.


O'zbekistonning Farg'ona vodiysida 2021-yilda har bir xonadonga avtomobil egalik darajasi ellik foizni (49 foiz) tashkil etdi. Mototsiklga egalik darajasi uch foizni, velosipedga egalik darajasi esa 70 foizni tashkil etdi. Xalqaro nuqtai nazardan avtomobilga egalik qilish darajasi nisbatan past. Mototsikl o'g'irlanishining kam tarqalishi asosan egalik darajasi 3 foizni tashkil etishi bilan izohlanadi. Chorva mollariga egalik ancha keng tarqalgan edi (uy xo'jaliklarining 52 foizi chorva mollariga ega edi). Shunga qaramay, chorva mollarini o'g'irlash nisbatan kam uchraydi.

Ma'lum sabablarga ko'ra, transport vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni viktimizatsiya darajasi


bunday transport vositalari egalari orasida oddiy aholiga qaraganda yuqori. Bu ko'rsatkich chorva mollarini va qishloq xo'jaligi texnikasi egalari ham tegishli. 3.3-jadvalda aholi va faqat mulkdorlarning mos ravishda besh yillik va bir yillik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Respondentlardan biri so'nggi besh yil ichida avtomobili o'g'irlanganini ta'kidladi (0,1 foizdan kam). Jabrlanuvchining o'g'irlangan mashinasi yaxshi holatda qaytarib berilgan, shuning uchun buni, ehtimol, avtomobilni ruhsatsiz haydash hodisasi deb ta'riflash mumkin. O'tgan yili avtomobil egalari bir foizdan kamrog'ining mashinalaridan biror buyum yoki qism o'g'irlangan. Bu besh yil davomida 2,8%, jami 42 ta o'g'irlikni tashkil etdi. Eng ko'p o'g'irlangan maxsulotlar telefonlar edi (o'n ikki marta). Yetti marta pul yoki hamyon, olti marta hujjatlar va to'rt marta avtomobil magnitolasi o'g'irlangan. Kamroq tilga olingan o'g'irlangan narsalar borta kompyuterlari, kiyim-kechak, birinchi tibbiy yordam komplektlari, yorliqlar, radar detektorlari, davlat raqamlari va batareya zaryadlovchi qurilmalari edi.

3-3-jadval. Besh yil va bir yil davomida mulk bilan bog'liq jinoyatlar uchun viktimizatsiya ko'rsatgichi; O'zbekistonning Farg'ona vodiysidagi jamoatchilik va mulkdorlar o'rtasidagi foiz



#### MULKDORLIK %



Tanlanmada 97 ta mototsikl yoki moped egasi bor edi va ulardan biri so'nggi besh yil ichida o'g'irlik haqida xabar bergan, so'nggi o'n ikki oyda esa hech biri. Ushbu past mulkdorlik va viktimizatsiya foizlari bilan, bu o'g'irliklar juda kam uchraydi, degan xulosaga kelishning imkoni yo'q emas.

Respondentlarning 70 foizi velosipedga ega. O'tgan yili bir foizdan kamrog'i velosipedini o'g'irlatgan, besh yil ichida esa ikki foizi. Keyinchalik muhokama qilinganidek, velosiped egalari orasida bunday viktimizatsiya darajasi xalqaro nuqtai nazardan nisbatan past.

Farg'ona vodiysida chorva o'g'irigidan jabrlanganlar kam uchraydi. Respondentlarning 50 foizi chorva mollariga ega. Ularining atigi 0,6 foizi so'nggi

besh yil ichida va 0,2 foizi so'nggi o'n ikki oy ichida chorvasini o'g'irlatgan. Aksariyat hollarda yaylovdan o'g'irlik sodir bo'lgan. Qishloq xo'jaligi texnikalarining o'g'irinishi haqida ham savol berildi. Biroq, egalik ko'rsatkichlari juda past, bor-yo'g'i olti foiz. Biz so'nggi besh yil ichida faqat bitta mazkur jinoyatdan jabrlanganini topdik, o'tgan yili jabrlangan esa topilmadi. Bu besh yil ichida 0,7% ni tashkil qiladi.

Mototsikllarni o'g'irlashda bo'lgani kabi, bunday past egalik ko'rsatkichlari bilan, bu o'g'irliklar kamdan-kam hollarda sodir etilgan deyishdan boshqa hech qanday xulosa chiqarish mumkin emas. Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi orasida bunday viktimizatsiya qanchalik tez-tez sodir bo'lishini aniqlash uchun fermerlar o'rtasida maxsus tadqiqot o'tkazish kerak.

## 3.5 Yo'l-transport hodisalari

So'rovnomada so'nggi besh yil va oxirgi o'n ikki oy ichida yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq tajribalar haqida savol berilgan<sup>10</sup>. Respondentlarning ikki foizi so'nggi o'n ikki oy ichida so'nggi besh yarim yil ichida yo'l-transport hodisasiga uchraganliklarini qayd etgan. Ta'rifga ko'ra, barcha jabrlanganlar qandaydir jarohat olgan. 44% hollarda jabrlanuvchi kasalxonada kamida bir kecha qolgan.

64 ta yo'l-transport hodisasining 43 tasida jabrlanuvchi avtomobil yo'lovchisi, o'n ikkitasi piyodalar, sakkiz nafari velosipedchi, biri

esa mototsikl yoki moped haydagan. 64 jabrlanuvchidan ikkinafari avtohalokatga sababchi bo'lgan haydovchi spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalar ta'sirida bo'lgan deb hisoblagan.

Holatlarning 55 foizida ichki ishlar organlari voqea sodir bo'lgan joyga (asosan jabrlanuvchi yoki boshqa biron qo'ng'iroq qilganidan keyin) kelgan. Barcha holatlarning uch foizida baxtsiz hodisa ichki ishlar organlariga keyingi bosqichda xabar qilingan. Ichki ishlar organlari nima uchun ko'p holatlarda ishtirok etmaganligini aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab qilinadi.

## 3.6 Bo'sqinchilik va boshqa maishiy o'g'irliklar

Bosqinchilik barcha mulkiy jinoyatlar ichida eng universal hisoblanadi, chunki deyarli barcha odamlar o'zlarining eng qimmatli narsalarni uyda saqlaydilar.

O'zbekistonda so'nggi bir yilda uy xo'jaliklarining yarmi bosqinchilikga uchragan yani 1,2 % besh yil ichida.

35 jablangandan faqat ikkitasining yo'qotishi sug'urta bilan qoplangan. Bosqinchilikga urinishlar kamroq sodir bo'ladi - oxirgi yilda 0,4% va besh yil ichida 0,6%. Yigirmata urinishdan faqat ikkitasida uyga ziyon yetkazilgan. Uy xo'jaliklarining 0,4 foizi o'z mulkiga bostirib kirishni sodir etilganligi, shu jumladan garajlar, shiyponlar va omborxonalarida o'g'irlik sodir etilganligini qayd etishgan.

<sup>10</sup> Aksariyat G'arb mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham yo'l-transport hodisalari statistikasi asosan ichki ishlar organlari bayonnomalaridan olinadi. Xalqaro taqqoslashlar, odatda, yo'l-transport hodisalarining o'lim bilan bog'liq toifalari bilan cheklanadi. Ba'zi mamlakatlarda yo'l-transport hodisalarining tarqalishi jinoyatdan jabrlanish so'rovlariga o'xshash aholi so'rovlari yordamida baholanadi. Ushbu mamlakatlar, jumladan, Buyuk Britaniyadagi natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, so'rovga asoslangan

## 3.7 Talonchilik va boshqa zo'ravonlik jinoyatlar

Hozirgacha muhokama qilingan barcha jinoyatlar, odatda, jabrlanuvchi o'zi yo'qr bo'lganida sodir bo'ladi, cho'ntak o'g'riligi sodir bo'lgan paytda esa jabrlanuvchi buni payqamaydi.

Ushbu bandda biz jabrlanuvchi jinoyatchi bilan to'qnash kelgan jinoyatlar, ya'ni bosqinchilik deb ataladigan jinoyatlarni muhokama qilamiz. Bu hollarda Jabrlanuvchi tahdid bilan qo'rqitiladi yoki zo'ravonlik amalda qo'llaniladi.

### Talonchilik

Talonchilik zo'ravonlik (yoki zo'ravonlik bilan tahdid) bilan bog'liq mulkni o'g'irlash deb ta'riflanadi. O'zbekistonning Farg'ona vodiysida, bu og'ir jinoyat juda kam uchraydi. O'tgan yili viktimizatsiya darajasi atigi 0,1% va besh yillik davrda 0,3% ni tashkil etdi.

To'qqiz holatdan ikkitasida jabrlanuvchining biror buyumi o'g'irlangan. Bitta holatga pichoq aralashgan. Qurol o'g'irlash holatlari qayd etilmagan. Hodisalarning birida jabrlanuvchi jarohatlangan va tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan.

### Hujum va tahdid

Oldingi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ko'plab respondentlar jinoyatlar haqida so'ragan intervyu oluvchilarga uy ichidagi zo'ravonlik harakatlari haqida xabar berishdan tiyilishadi (FRA, 2014). Maishiy zo'ravonlikning ko'proq holatlarini aniqlash uchun XVT so'rovnomasida zo'ravonlik jinoyatlari to'g'risidagi savol 2015 yildan beri ikki toifaga bo'lingan: jabrlanuvchiga ma'lum bo'lgan shaxslar tomonidan zo'ravonlik (yaqinlar o'rtasidagi zo'ravonlik) va begonalar tomonidan zo'ravonlik. 3-2-jadvalda ushbu savollarga berilgan javoblar zo'ravonlik jinoyati uchun bitta ko'rsatkichda birlashtirilgan (shuningdek, 2-izohga qarang). Yuqorida aytib o'tilganidek, zo'ravonlik va jinsiy zo'ravonlik bo'yicha savollar ayol respondentlarga intervyu oluvchilar tomonidan olib boriladigan maxsus modulda berildi.

Respondentlarning yarmi so'nggi o'n ikki oy ichida hujum yoki tahdidan jabr ko'rgan. Besh yillik tarqalish darajasi 1,3% ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich yuqorida aytib o'tilgan talonchilik ko'rsatkichidan ancha yuqori.

Holatlarning yarmidan bir oz ko'prog'ida zo'ravonlik amalda qo'llanilgan va yarmidan kamrog'i faqat tahdidlar edi. Aksariyat hollarda jinoyatchi jabrlanuvchiga tanish edi. Huquqbuzarlarning 41 nafaridan yetti nafari jabrlanuvchining turmush o'rtog'i yoki sobiq turmush o'rtog'i bo'lgan. Bu holatlar asosan ayollarga nisbatan oilaviy zo'ravonlikdan iborat. 41 holatdan 9 tasida qurol ishlatilgan.

Jabrlanganlarga ma'lum bo'lgan shaxslar tomonidan zo'ravonlik ko'rsatkichlari erkaklar va ayollar uchun teng yoki har birida 1,6% edi. Notanishlar tomonidan sodir etilgan zo'ravonlik jinoyatidan jabrlanish darajasi erkaklarda (1,9%) ayollarga nisbatan (0,9%) sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, ayollarga nisbatan zo'ravonlik erkaklarga nisbatan zo'ravonlikdan ko'ra ko'proq tanish shaxslar tomonidan sodir etiladi.

Ayol respondentlar uchun haddan tashqari noqulay vaziyatga tushib qolmaslik uchun cheklangan miqdordagi savollarga ega maxsus moduldan foydalanganligi sababli, voqealar tafsilotlari faqat

erkak respondentlar uchun mavjud. Jabrlangan 25 erkakdan 11 nafari qandaydir jarohat olgan, ulardan ikkitasiga tibbiy yordam zarur bo'lgan.

Notanish yoki yaqin kishilar tomonidan tajovuz va tahdidlar jabrlangan erkaklarning 45 foizida badan ko'kargan yoki boshqa jismoniy jarohatlar olgan. Bir necha jabrlanuvchilar kamida bir kecha kasalxonada qolishlari kerak edi (<5%). Aytganimizdek, bu foiz yo'l-transport hodisalaridan jabrlanganlarning orasida ancha yuqori (>40%).

Jabrlanganlarning so'zlariga ko'ra, erkaklarga hujum qilgan va tahdid qilganlarning deyarli

yarmi spirtli ichimliklar ta'sirida bo'lgan. Agar jinoyatchilar notanish bo'lsa, ko'rsatkich 45% ni ular tanishlari bo'lgan ko'rsatkich 47%ni tashkil etgan.<sup>11</sup> Ushbu natija zo'ravonlik jinoyatlari ko'pincha spirtli ichimliklar ta'sirida sodir etilganligi va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish zo'ravonlik jinoyatlarining tarqalishiga sabab bo'lgan xalqaro xulosani tasdiqlaydi (Rossow, 2001; Van Dejk, 2008).

Voqealarning uchdan birida qurol ishlatilgan. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik jinoyatlarida qurol biroz kamroq qo'llanilgan (12% hollarda). Aksariyat hollarda qurol pichoq edi.

## Ayollarga nisbatan zo'ravonlik, shu jumladan jinsiy erkinlikka daxl qilish holatlari

Jinsiy huquqbuzarliklar haqidagi savol so'rovnomaning faqat ayol respondentlar uchun ishlatilgan alohida qismida berilgan. Besh yil davomida faqat uchta ayol jabrlangan, o'tgan yili esa yo'q. Bir holatda jinoyatchi jabrlanuvchining yigiti bo'lsa, boshqa ikkita holatda jinoyatchi notanish bo'lgan. Ikki holatda jinoyat zo'rlash, bir holatda esa nomaqbul jismoniy hatti-xarakat sifatida tavsiflangan. Raqamlar juda past bo'lsa-da, ular respondentlar jismoniy zo'ravonlik haqiqatda qo'llanilgan paytdagi jinsiy hodisalar haqidagi savolga faqat ijobiy javob berganligini ko'rsatadi. Boshqa mamlakatlarda xabar qilingan holatlarning aksariyati "shunchaki haqoratli xatti-harakatlar" sifatida tavsiflangan (Van Dayk, Van Kesteren & Smit, 2007).

Bu xulosa Farg'ona vodiysidagi respondent ayollarning so'rovnomani sinovdan o'tkazish paytida kuzatilgan jinsiy hayot haqidagi savollarga javob berishni istamasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ayollar uchun so'rovnomaning bir qismida respondentning turmushga chiqishga majburlanganligi haqidagi savol kiritilgan. Turmushga chiqqan 1482 nafar respondent ayoldan 26 nafari majburan turmushga chiqqanligini aytdi. Ulardan 18 nafari oxir-oqibat nikohga rozi bo'lganliklarini aytishdi. Nikohlarning 1,7 foizi majburiy nikohlar ekani haqidagi ma'lumotlar bu an'anaviy amaliyot saqlanib qolganidan dalolat beradi.

<sup>11</sup> Bu savol zo'ravonlik va jinsiy jinoyatlar bo'yicha ayol respondentlar uchun savollar bilan maxsus modulga kiritilmagan

## 3.8 Poraxo'rlik

XVTning o'zbekcha versiyasida pora olish haqidagi savol quyidagicha yozilgan:

*"Ko'pgina mamlakatlarda davlat va xususiy sektorda poraxo'rlik muammosi mavjud. Oxirgi besh yil ichida huquq-tartibot organi xodimi, boshqa davlat mansabdorlari (masalan, inspektor yoki bojxona xodimi), hokimlik vakili, munitsipal xodim, mahalla vakili, sudya, prokuror, shifokor yoki o'qituvchi kabilar sizdan uning xizmatlari uchun norasmiy to'lov, sovg'a yoki yordam kabi pora berishingizni kutganmi yoki so'raganmi?"*

Odatda ko'cha darajasidagi korrupsiya deb nomlanuvchi korrupsiyaning bu turi nisbatan keng tarqalgan bo'lib chiqdi: aholining 1,5 foizi o'tgan yili va 3 foizi besh yil davomida ushbu so'rovda 3000 respondent o'rtasida jami 91 holatga duch kelgan.

Eng ko'p pora so'ragan (yoki boshqa yo'l bilan olishni kutayotganini ko'rsatgan) mansabdor shaxslar shifokorlar (28 marta), hokimlik vakillari (13 marta), ichki ishlar organlari va majburiy ijro byurosi xodimlari (13 marta), mahallala fuqarolar yig'ini ishchilari (6 marta), o'qituvchilar (5 marta), avtoservis xodimlari (4 marta). harbiylardan kimdir (ikki marta) va soliq xodimi bo'lib chiqishdi.

Respondentlarning 13 nafari pora so'ragan hizmatchining kimligini aytishdan bosh tortdi. Uchta holatda sud jarayoni natijasiga ta'sir qilish uchun pora so'ralgan. Ko'pchilik aslida pora bermaganliklarini aytishgan. Agar pora (yoki backhander) to'langan bo'lsa, ko'p hollarda summa 6 million so'mdan kam bo'lgan. Holatlarning yarmida pora o'zbek milliy valyutasida, deyarli yarmi chet el valyutasida to'langan.

Respondentlardan nima uchun ular pora berish kerak deb o'ylashlari so'ralgan. Uchdan bir qismi boshqa imkon yo'q, chorak qismi bu vaqtning tejashning eng yaxshi yo'li deb hisobladi va har beshdan biri pul to'lashga majbur ekanini aytdi. Beshtadan yana biri ularga to'lash tavsiya etilganini aytdi. Har oltidan biri bu amaliyot keng qabul qilinganini ta'kidladi. Bu javoblar respondentlarning aksariyati so'ralgan porani bermaganligi haqidagi xulosaga to'liq mos kelmaydi.

Pora berishga majbur bo'lganlardan ayrim davlat mansabdorlarining maxsus imtiyozlarga ega bo'lish sabablari haqida mulohaza yuritish so'ralgan. Berilgan barcha javoblar qarindosh-urug'chilikni sabab deya ko'rsatdi. Respondentlarning taxminicha, bu mansabdorlar boshliqning qarindoshi yoki do'sti yoki boshliq ulardan qarzdor bo'lgan.





## 4 XALQARO, QIYOSIY NUQTAI NAZARDAN VIKTIMIZATSIYA KO'RSATKICHLARI

Standartlashtirilgan asosiy so'rovnomadan foydalanishvanamunaolishusullarivama'lumotlarni to'plash usullarini standartlashtirish tufayli viktimizatsiya darajasi bo'yicha XVTga asoslangan natijalarni mamlakatlar bo'ylab taxminan solishtirish mumkin.<sup>12</sup> Asosiy moliyalashtirishning yetishmasligi tufayli, XVT afsuski, 2010 yildan keyin faqat cheklangan davlatlar tanlovida o'tkazildi. Ko'pgina mamlakatlarda viktimizatsiya darajasi vaqt o'tishi bilan o'zgarib turishi va aslida 21-asrda pasayish tendentsiyasini ko'rsatganligi sababli, bizning xalqaro taqqoslash asosan 2010 yoki undan keyingi yillarda XVT asosidagi tadqiqotlar o'tkazilgan o'n yetti mamlakat bilan cheklangan.

2021yil O'zbekistonning Farg'ona vodiysi bo'yicha viktimizatsiya darajasi boshqa mamlakatlardagi so'rov natijalari bilan solishtirilganda shuni yodda tutish kerakki, yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekistondagi so'rov Farg'ona vodiysining uchta viloyati aholisi o'rtasida o'tkazilgan, ammo mamlakat aholisi, jumladan, poytaxt Toshkent shahrining aholisi orasida emas. Milliy so'rovlarda doimiy ravishda ma'lum bo'lishicha, viktimizatsiya darajasi mamlakatning urbanizatsiyalashgan hududlarida, ayniqsa poytaxt shaharlarida sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

Farg'ona vodiysi ancha urbanizatsiyalashgan hudud bo'lgani uchun – viloyat aholisining 50 foizi shahar posyolkalarida istiqomat qiladi – natijalar O'zbekiston aholisi orasida o'tkazilgan so'rov natijalaridan unchalik farq qilmasligi mumkin.

Boshqa mamlakatlardagi 2010 yil yoki undan keyingi yillardagi ko'rsatkichlar bilan solishtirganda shuni hisobga olish kerakki, so'nggi yillarda G'arb mamlakatlarida umumiy jinoyatlarning aksariyat shakllari pasayish tendentsiyasiga ega (Van Dayk, Nieuwbeerta & Larssen, 2021). Shuning uchun 2010 yildagi ko'rsatkichlarni 2021 yildagi ko'rsatkichlar bilan deyarli solishtirib bo'lmaydi. Biroq, quyida ko'rib chiqamizki, O'zbekistonning Farg'ona vodiysi va boshqa ko'plab mamlakatlar o'rtasidagi viktimizatsiya darajasidagi farqlar shunchalik kattaki, taqqoslash natijalari sezilarli.

Farg'ona vodiysidagi ko'rsatkichlarni boshqa madaniyatlarga ega bo'lgan uzoq Karib dengizi mamlakatlaridagi raqamlar bilan solishtirish juda yuzaki bo'lib tuyulishi mumkinligini tan olsak-da, bu raqamlar XVT juda yuqori darajadagi zo'ravonlik va jinsiy jinoyatlarga bog'liq jinoyatchilik darajasini o'lchash uchun isbotlangan salohiyatini ko'rsatish uchun kiritilgan.

<sup>12</sup> Mamlakatlar bo'ylab XVT natijalarini solishtirish masalasi bo'yicha batafsil muhokama uchun qarang: Meyhyu va Van Dayk, 2011.

## 4.1 To'qqizta jinoyatlar bo'yicha viktimizatsiyaning keng tarqalganligi


XVT so'rovnomasidagi to'qqizta asosiy jinoyat bo'yicha qiyosiy viktimizatsiya darajasi 4-1-diagrammada ko'rsatilgan.

To'qqizta keng tarqalgan jinoyatlar bo'yicha jami viktimizatsiya ko'rsatkichlarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysida bir yil davomida viktimizatsiya darajasi 2010 yil yoki undan

keyingi yillarda so'rovlar o'tkazilgan tanlangan mamlakatlardagi o'rtacha ko'rsatkichdan (taxminan 9%) past (3,2%). Farg'ona vodiysining umumiy ko'rsatkichlari ham Qirg'iziston (12,6%) va Qozog'iston (11,0%) ko'rsatkichlaridan ancha past.

Har bir jinoyat turi bo'yicha mamlakatlar bo'yicha viktimizatsiya darajasi D-3 ilovasida keltirilgan.

4-1- diagramma. Tanlangan mamlakatlar va shaharlarda to'qqizta jinoyat uchun bir yillik viktimizatsiya darajasi



## 4.2 Avtotransport bilan bog'liq jinoyatlarining keng tarqalganligi

4-2-jadvalda faqat transport vositalari egalari uchun viktimizatsiya darajasi ko'rsatilgan. Ushbu avtomobil egalari viktimizatsiya darajasi, avvalroq muhokama qilinganidek, umumiy aholi o'rtasidagi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori. Ular, shuningdek, umumiy viktimizatsiya darajasidan ko'ra, mamlakatlar bo'ylab bir

oz boshqacha taqsimlanishni ko'rsatadi. Farg'ona vodiysidagi avtomashina egalari viktimizatsiya darajasi o'rtacha ko'rsatkichdan pastligicha qolmoqda, ammo aholining umumiy ko'rsatkichlaridan aniqligi kamroq. Farg'ona vodiysida velosiped o'g'irlash xalqaro miqyosda kam uchraydi, hatto velosiped egalari orasida.

4-2-jadval. Tanlangan mamlakatlar va yirik shaharlarda avtoullov egalari uchun bir yillik tarqalish ko'rsatkichlari


	Yil	Avtomobil o'g'irlash %	Avtomobildan buyum o'g'irlash %	Mototsik o'g'irlash %	Velosiped o'g'irlash %	
O'rtacha						
Mamlakatlar		0.6	2.9	1.3	3.5	
Shaharlar		0.7	5.3	5.6	7.3	
Farg'ona vodiysi, O'zbekiston	2021		0.8		0.6	
<b>- Shahar</b>			<b>1.2</b>		<b>0.9</b>	
Gruziya	2020	0.1	3.2	1.5	0.9	
<b>-Tbilisi</b>		<b>0.2</b>	<b>4.4</b>	<b>1.6</b>	<b>1.0</b>	
Qozog'iston	2018	0.4	5.1	0.8	2.2	
<b>-Ostona</b>		<b>0.7</b>	<b>4.4</b>		<b>2.8</b>	
<b>-Olmaota</b>		<b>0.6</b>	<b>9.3</b>	<b>2.0</b>	<b>4.5</b>	
Qirg'iziston	2015	1.5	4.7	2.6	3.1	
<b>-Bishkek</b>		<b>1.4</b>	<b>7.6</b>	<b>5.1</b>	<b>7.0</b>	
<b>-O'sh</b>		<b>1.1</b>	<b>4.2</b>	<b>5.9</b>	<b>4.0</b>	
<b>-Pekin (Xitoy)</b>		<b>2014</b>	<b>0.3</b>	<b>5.9</b>	<b>13.4</b>	<b>30.8</b>
Kanada	2010	1.6	5.6	2.5	3.4	
Daniya	2010	0.8	3.7	1.9	7.3	
Germaniya	2010	0.2	2.2	0.3	4.5	
Yaponiya	2019	0.0	0.3	0.4	2.1	
Niderlandiya	2010	0.4	3.2	1.0	6.7	
Shvetsiya	2010	0.6	1.6	0.9	6.2	
Birlashgan Qirollik	2010	0.6	4.3	2.3	3.5	

## 4.3 Bosqinchilik jinoyatining keng tarqalganligi

bosqinchilik butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan jinoyat turi bo'lib, jabrlangan oilalarga katta ta'sir ko'rsatadi. 4-3- diagramma mavjud so'nggi so'rovlarning xalqaro natijalari tasvirlangan. O'zbekistonning Farg'ona vodiysida uyga bostirib kirib o'g'irlik sodir qilish jinoyatidan jabrlanish darajasi mintaqadagi boshqa davlatlar, Karib dengizi mamlakatlari va Yaponiyaga nisbatan past. Shuningdek, ko'rsatkichlar 2010

yilda so'rovlar o'tkazilgan G'arbiy Yevropa mamlakatlariga qaraganda ancha past. Aksariyat G'arb mamlakatlarida, ayniqsa Buyuk Britaniya va Niderlandiyada so'nggi yillarda bosqinchilik darajasi milliy viktimizatsiya so'rovlari ko'ra pasayishda davom etdi va hozirda 2010 yilga nisbatan pastroq. Farg'ona vodiysining hozirgi ko'rsatkichi xalqaro nuqtai nazardan juda past ko'rinadi.

4-3- diagramma. Tanlangan so'rovlarni uchta zo'ravonlik jinoyati bo'yicha xalqaro taqqoslash. So'nggi o'n ikki oy ichida kamida bir marta jabrlangan aholining ulushi



## 4.4 Zo'ravonlik jinoyatlarining keng tarqalganligi

### Talonchilik

Zo'ravonlik yoki zo'ravonlik bilan tahdid qilish (talonchilik) bilan bog'liq talonchilik XVT ma'lumotlar bazasida aks ettirilgan boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha past.

Bu xulosa tajovuzlar, tahdidlar va jinsiy tajovuzga bog'liq hodisalar uchun ham taalluqli.

4-4-jadvalda uchta zo'ravonlik jinoyati uchun bir yillik viktimizatsiya darajasi ko'rsatilgan.

### Jinsiy tajovuzga oid huquqbuzarliklar va majburiy nikoh

Farg'ona vodiysida o'tkazilgan viktimizatsiya so'rovi doirasida O'zbekistonda so'nggi o'n ikki oy ichida jinsiy huquqbuzarlik jinoyatdan jabrlangan respondent ayolni aniqlamadik. Biroq, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar va taqiqlovchi buyruqlar haqidagi ma'lumotlar

haqiqatan ham jinsiy zo'ravonlik juda keng tarqalganligi haqida yana bir tasavvur uyg'otadi. Bu savol ko'plab respondentlar uchun juda nozik bo'lganligi sababli, bu ko'rsatkich haqiqiy tarqalish darajasini yetarli baholay olmaydi va bu borada maxsus tadqiqotlar tavsiya etiladi.

### Hujum va tahdid

Hujum va tahdidlar bo'yicha raqamlar Gruzija va Qirg'izistondagiga qaraganda ikki baravar. Qozog'istonda bu ko'rsatkich ancha yuqori.

Haqiqatan ham, O'zbekiston bo'yicha bu ko'rsatkich biz hozirgacha o'tkazgan XVT viktimizatsiya so'rovida topilgan eng past ko'rsatkichdir.

4-4-jadval. Tanlangan so'rovlarni uchta zo'ravonlik jinoyati bo'yicha xalqaro taqqoslash. So'nggi o'n ikki oy ichida kamida bir marta viktimizatsiyaga uchragan aholining ulushi


	So'rov o'tqazilgan yil	Talanchilik %	Jinsiy tajovuzga oid huquqbuzarliklar (ayollar) %	Hujum va tahdid %
O'rtacha				
Milliy		0.7	1.1	2.5
<b>Shahar</b>		<b>1.3</b>	<b>1.2</b>	<b>2.5</b>
Farg'ona vodiysi, O'zbekiston	2021	0.1	0	0.5
<b>- Shahar</b>		<b>0.1</b>	<b>0</b>	<b>0.8</b>
Gruziya	2020	0.2	0.4	1.1
<b>-Tbilisi</b>		<b>0.1</b>	<b>0.9</b>	<b>1.6</b>
Qozog'iston	2018	1.0	1.7	3.7
<b>-Ostona</b>		<b>0.7</b>	<b>2.1</b>	<b>4.7</b>
<b>-Olmaota</b>		<b>1.7</b>	<b>2.3</b>	<b>5.4</b>
Qirg'iziston	2015	1.1	1.1	1.0
<b>-Bishkek</b>		<b>2.0</b>	<b>1.4</b>	<b>1.7</b>
<b>-O'sh</b>		<b>1.9</b>	<b>1.2</b>	<b>1.3</b>
<b>-Pekin (Xitoy)</b>	<b>2014</b>	<b>2.9</b>	<b>0.8</b>	<b>2.2</b>
Kanada	2010	1.3	1.2	2.5
Daniya	2010	0.8	0.4	3.2
Germaniya	2010	0.8	1.5	2.8
Yaponiya	2019	0.6	0.6	1.4
Niderlandiya	2010	1.1	0.8	3.6
Shvetsiya	2010	0.4	1.5	3.1
Birlashgan Qirollik	2010	0.6	1.2	3.2
Shveytsariya	2014	1.0	2.8	4.7

## 4.5 Iste'molchilarga nisbatan firibgarlik jinoyati va ko'cha darajasidagi korrupsiyaning keng tarqalganligi

2004 yildan beri XVT korrupsiya (xususiy shaxslar yoki davlat mansabdorlari tomonidan pora olish) va iste'molchilarga nisbatan firibgarlik jinoyati va ko'cha darajasidagi korrupsiyaning keng tarqalganligi bog'liq tajribaga oid savollarni o'z ichiga oladi. 4-4 va 4-5-diagramma tanlangan mamlakatlardan iste'molchilarga nisbatan firibgarlik jinoyati va ko'cha darajasidagi korrupsiyaning keng tarqalganligi va pora ta'ma qilish bo'yicha xalqaro natijalar ko'rsatilgan. Taqqoslashda G'arb mamlakatlari sonini ko'paytirish uchun 2004 yildan boshlab o'tkazilgan barcha so'rovlar natijalari kiritilgan. Taqdim etilgan natijalar har bir mamlakat bo'yicha mavjud so'nggi so'rovlardan olingan.

Farg'ona vodiysi aholisining iste'molchilarga nisbatan firibgarlik jinoyati va ko'cha darajasidagi korrupsiyaning keng tarqalganligi darajasi xalqaro, jumladan, mintaqaviy nuqtai nazardan nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu, shuningdek, 2010-yildagi ko'plab G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi darajadan past. Biroq, so'nggi yillarda Yevropa bo'ylab onlayn xaridlarning ko'payishi, ayniqsa, 2020/2021 yillarda koronavirus blokrovkasi davrida iste'molchilarni firibgarlik yo'li bilan aldash jinoyati darajasi oshganini istisno qilib bo'lmaydi.

**4-4- diagramma. Tanlangan mamlakatlarda va asosiy shaharlarda iste'molchilarga nisbatan firibgarlik jinoyati bilan bog'liq viktimizatsiyaning bir yillik tarqalganlik darajasi**



Poraxo'rlik/korrupsiya darajasini xalqaro taqqoslash uchun biz ham xuddi shunday eski XVT tadqiqotlari natijalarini kiritdik, chunki bu band G'arbiy Yevropadagi XVTning 2010-yilgi bosqichida olib tashlangan.<sup>13</sup> 4-4- diagrammada natijalar keltirilgan.

Farg'ona vodiysi, O'zbekiston O'zbekistondagi xususiy shaxslar yoki davlat mansabdorlarining bir yillik poraxo'rlik darajasi bizning so'rovimizga ko'ra 2021-yilda 0,6 foizni tashkil etib, gdiagrammadagi tanlangan mamlakatlarning

<sup>13</sup> XVT bandi Transparency International NNT tomonidan muntazam ravishda o'tkaziladigan global so'rovlarda qabul qilingan




o'rtacha darajasidan (4,2 foiz) pastroqdir va Gruziyanikiga o'xshaydi.

Bu ko'rsatkich mintaqaning boshqa ikki davlatida (Qirg'iziston va Qozog'iston) va Xitoyda (Pekin) so'nggi tadqiqotlarda kuzatilgan ko'rsatkichdan ham ancha past. Farg'ona vodiysidagi bu ko'rsatkich hozirda 2010-yilda ko'pchilik G'arb mamlakatlarida kuzatilganidan biroz yuqoriroq.

Iste'molchilarni firibgarlik bilan aldash ko'rsatkichidan farqli'laroq, korruptsiya bo'yicha ko'rsatkich sobiq sotsialistik mamlakatlarda o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori. Farg'ona vodiysi bu borada istisno sifatida namoyon bo'ladi. Bu O'zbekistonda o'tkazilgan birinchi so'rov bo'lgani va savollar ko'pchilik respondentlar uchun juda nozik bo'lganini inobatga olsak, bu ko'rsatkich haqiqiy tarqalishni yetarlicha baholay olmaydi va bu boradagi maxsus tadqiqotlar tavsiya etilgandek ko'rinadi.

#### 4-5- diagramma. Xalqaro kontekstda ko'cha darajasidagi korruptsiya uchun bir yillik viktimizatsiya darajasi.



\* 2004 yildan boshlab XJQT asosidagi so'rovlar; Qarang: Van Deyk, va boshqalar, 2007

# 5 TURLI AHOLI GURUHLARI ORASIDA VIKTIMIZATSIYA XAVFLARI

Jinoyatdan jabrlanish xavfi aholi o'rtasida teng taqsimlanmagan. Aholining turli qatlamlarining zaifligi turmush tarzining ta'siriga oid nazariya bilan izohlanadi (Hindelang, Gottfredson va Garofalo, 1978): aholi guruhlarining turmush tarzi, masalan, uydan tashqarida o'tkaziladigan soatlar, jinoyatdan jabrlanish xavfini belgilaydi. Keyingi paragraflarda viktimizatsiya xavfini belgilovchi asosiy ma'lum omillar, ya'ni urbanizatsiya darajasi, yosh, jins va daromadlar

muhokama qilinadi. Shuningdek, biz Farg'ona vodiysi, O'zbekistondagi uchta mintaqadagi xavflarning o'zgarishini ko'rib chiqamiz.

Jinoyatning ko'p turlari bo'yicha bir yillik viktimizatsiya darajasi past bo'lgani uchun biz o'n to'qqizta jinoyat turi yoki to'qqizta asosiy jinoyatlar bo'yicha viktimizatsiya xavfini taqsimlashga e'tiborni qaratamiz.

## 5.1 Shahar va qishloq aholi punktlari

So'rov ma'lumotlar to'plami natijalarni aholi punktlari (shahar yoki qishloq) turi bo'yicha taqsimlashga imkon beradi. Urbanizatsiya viktimizatsiya xavfining eng muhim omillaridan biridir. Katta shahar aholi punktlarida birga yashaydigan odamlarning ko'pligi, potentsial jabrlanuvchilar qishloq joylariga qaraganda jinoyatchi bo'lishi mumkin bo'lgan begona odamlarga ko'proq duch kelishlarini anglatadi. Bundan tashqari, norasmiy ijtimoiy nazorat anonim shahar sharoitida zaifroq (odamlar jinoyat sodir etilganda aralashishga unchalik tayyor emas). Bu omillar nima uchun jinoyatchilik darajasi shaharlarda qishloqlarga qaraganda yuqori ekanligini tushuntiradi.

Farg'ona vodiysi bu qoidadan istisno emas, buni quyidagi 5-1-jadvalda ko'rish mumkin (jadvalning o'ng tomonidagi ustunlar).

Shahar aholi punktlarida jami bir yillik viktimizatsiya darajasi qishloq joylarga qaraganda qariyb 50 foizga yuqori (barcha jinoyatlar uchun 5,7 foizga nisbatan 7,3 foiz). Bu dunyoning boshqa mamlakatlarida o'tkazilgan so'rov natijalariga mos keladi. Farg'ona vodiysi uchun farq barcha jinoyatlar bo'yicha bir necha istisnolardan tashqari (masalan, iste'molchilarni firibgarlik yo'li bilan aldash) mos keladi. Aksincha, chorva mollarini o'g'irlash va qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlash, albatta, shaharlarda tez-tez sodir bo'lmaydi.

## 5.2 Farg'ona vodiysidagi uchta viloyat, O'zbekiston

Umumiy viktimizatsiya darajasi Farg'ona viloyatida eng yuqori, Andijon viloyatida o'rtacha va eng past ko'rsatkich Namangan viloyatida. Natijalar ushbu mintaqalarning har birida 1000 ta namunaga asoslanganligi sababli, bu farqlar statistik jihatdan ahamiyatli.

Uchta viloyat o'rtasidagi viktimizatsiya darajasidagi farqlar ularning urbanizatsiya darajasidagi farqlar bilan izohlab bo'lmaydi, chunki eng past xavfga ega bo'lgan Namangan viloyati mintaqasi eng yuqori urbanizatsiyalashgan hudud hisoblanadi (aholining 64% shahar tipidagi hududlarda istiqomat qiladi, Farg'ona viloyatida 50% va Andijon viloyatida 58% ga nisbatan).

**5-1-jadval. O'zbekistonning Farg'ona vodiysida so'nggi o'n ikki oyda kamida bir marta jinoyatan jabrlangan aholining ulushi viloyat, shahar yoki qishloq kesimida**

	Farg'ona vodiysi, O'zbekiston %	Farg'ona viloyati %	Andijon viloyati %	Namangan viloyati %	Shahar %	Qishloq %
Barcha jinoyatlar	6.6	9.2	5.9	3.8	7.3	5.7
To'qqiz jinoyat *	3.2	4.0	3.4	1.9	3.6	2.6
Transport vositalari bilan bog'liq jinoyatlar						
Avtomobil o'g'irlash						
Avtomobil salonidan o'g'irlash	0.4	0.3	0.7	0.2	0.6	0.2
Mototsikl o'g'irlash				0.1		
Velosiped o'g'irlash	0.4	0.3	0.9	0	0.6	0.2
Maishiy jinoyatlar						
Chorva mollarini o'g'irlash	0.1	0.1		0.2	0.1	0.1
Qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlash		0.1				
uy-joy, omborxonona yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o'g'irlik	0.5	0.4	0.7	0.3	0.5	0.4
Talonchilikka suiqaqd	0.2	0.3	0.2	0.2	0.3	0.2
Shaxsiy mulkka daxl qilish	0.4	0.5	0.1	0.5	0.4	0.3
Alohida jinoyatlar						
Shaxsiy mulkni o'g'irlash	1.4	1.7	1.5	0.8	1.4	1.3
- Kissavurlik **	0.8	1.0	0.7	0.5	0.7	0.8
Iste'molchiga nisbatan firibgarlik	2.1	3.8	1.0	1.1	2.0	2.2
Poraxo'rlik	1.5	2.4	0.6	1.2	1.5	1.5
Yo'l-transport hodisasi	0.5	0.4	0.6	0.5	0.6	0.4
Zo'ravonlik jinoyatlari						
Talonchilik	0.1	0.3			0.1	0.2
Ayollar: jinsiy erkinlikka daxl qilish holatlari						
Jinsiy tajovuz **						
Hujum va tahdid ***	0.5	1.2	0.2	0.1	0.8	0.3
Hujumlar **	0.3	0.9	0.1	0.0	0.6	0.1

\* To'qqizta jinoyat - avtomobil o'g'irlash, avtomobil salonidan o'g'irlash, mototsikl o'g'irlash, velosiped o'g'irlash, o'g'irlik, talonchilik, shaxsiy mulkni o'g'irlash, ayollarga nisbatan jinsiy huquqbuzarliklar, tajovuz va tahdid. Ushbu elementlar loyiha boshidanoq XVTda bo'lgan va xalqaro taqqoslash uchun ishlatiladi.

\*\* Kissavurlik, tajovuz va jinsiy tajovuz "nima bo'ldi" ustunidagi tegishli bandlar yordamida hisoblab chiqiladi.

\*\*\* Hujum va tahdid 4 ta alohida savoldan iborat


## 5.3 Yosh, jins va daromad darajasi

Ushbu paragrafda biz o'n to'qqiz turdagi umumiy jinoyatlarning har biridan jabr ko'rish xavfini va jins, uchta yosh toifasi va daromadning uchta darajasi kesimida ajratilgan to'qqizta asosiy jinoyatlarni taqdim etamiz. 5-1- diagramma 2021 yilgi viktimizatsiya so'roviga ko'ra, jins, yosh va daromad darajasi doir 19 ta jinoyat bo'yicha jami viktimizatsiya darajasi ko'rsatilgan.

Farg'ona vodiysida O'zbekistonda erkaklar ayollarga nisbatan 1,6 barobar ko'proq jinoyatdan jabrlanishadi. Buning sababi, ehtimol, ayollar o'z uylarida ko'proq

vaqtni bexavf o'tkazishlari va buyumlarni o'g'irlash mumkin bo'lgan avtomobillar kabi mulkka ega bo'lish ehtimoli kamroq. Bundan tashqari, yoshlar keksalarga qaraganda ko'proq jabrlanishadi. Yosh va umumiy jinoyatdan jabrlanish xavfi o'rtasidagi teskari munosabat asosan yosh guruhleri turmush tarzidagi farqlar bilan izohlanadi. 20 dan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar ko'proq ochiq turmush tarzini namoyish etadilar va shu bilan o'zlarini begonalar, shu jumladan potentsial huquqbuzarlar bilan ko'proq aloqada bo'lishadi (Hindelang, Gottfredson va Garofalo, 1978). O'zbekiston aholisi yosh va o'rtacha yosh 30 ni tashkil qiladi.

**5-1- diagramma. Jins, yosh va daromad bo'yicha taqsimlangan 9 ta jinoyat bo'yicha bir yil davomida viktimizatsiya darajasining tarqalishi**



Yuqori daromadli odamlar uchun jabrlanish xavfi yuqori. Ular mulkiy jinoyatlar uchun yanada jozibador nishondirlar, chunki ular ko'proq "o'g'irlanadigan" buyumlarga yoki hashamatli buyumlarga ega. Ular, shuningdek, huquqbuzarlar bilan to'qnash kelishlariga sabab ochiq turmush tarzini saqlab qolish ehtimoli yuqori.

Biz jinoyatning ayrim turlari bo'yicha xavflarning taqsimlanishini keltirmaymiz. Jadvallarni taqsimlash natijalari D ilovasida keltirilgan. Ayollarga qaraganda erkaklarning birmuncha yuqori xavf ostida bo'lishi jinoyatning turli turlari bo'yicha mos keladi. Biroq, ba'zi istisnolar mavjud. Ushbu istisnolarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish kerak, chunki kichik farqlar statistik ahamiyatga ega emas.

Ammo shunisi e'tiborga loyiqki, Farg'ona vodiysidagi ayollar erkaklarga nisbatan talonchilik va yer-

mulkgi daxl xavfiga ko'proq uchrashadi, bu natija Gruziyadagidek (Van Deyk, Chantulia va Glonti, 2021). Mumkin tushuntirish shundan iboratki, talonchilarr/bosqinchilar faqat ayollar yashaydigan uylarni o'lja qilishadi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, yuqori daromadli guruhlar har qanday jinoyatdan jabrlanish ehtimoli yuqoriroq, lekin bosqinchilikdan emas, bosqinchilik ko'proq kambag'al odamlarga nisbatan sodir etiladi. Buning tushuntirilishi shundayki, ko'plab huquqbuzarlar kambag'al odamlar orasida yashaydilar va o'z mahallalarida bosqinchilik qilishga moyildirlar. Boshqa mamlakatlarda, XVT bosqinchilik xavfi xam kambag'allar orasida, va boylar orasida ham eng yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ushbu holatda, bosqinchilik professional o'g'rilar tomonidan sodir etilgan.



# 6 JABRLANGANLARNING VIKTIMIZATSIYAGA REAKSIYASI

## 6.1 Ichki ishlar organlariga murojaat qilish

Oxirgi besh yil davomida viktimizatsiyani boshdan o'tkazgan barcha respondentlardan ular yoki ularning oila a'zolaridan biri jinoyat haqida ichki ishlar organlariga xabar berganmi yoki yo'qmi deya so'ralgan. Jinoyatning ikki turi bo'yicha - iste'molchilarni firibgarlik yo'li bilan

aldash va poraxo'rlik jinoyatlari bo'yicha ichki ishlar organlaridan tashqari boshqa organlarga xabar berish imkoniyati berildi. Barcha javoblar respondentga nisbatan sodir etilgan oxirgi jinoyatga tegishli. Farg'ona vodiysi bo'yicha natijalar 6-1-jadvalda keltirilgan.



**6-1-jadval. Har bir jinoyat bo'yicha ichki ishlar organlariga murojaatlar soni va barcha jinoyatlar bo'yicha murojaatlarning foizi (har bir jinoyatning oxirgi voqeasi asosida)**

	Ha	Yo'q	Boshqa vakolatli organ	[Bilmayman]
Barcha jinoyatlarning foizi	<b>23</b>	<b>76</b>	1	0
To'qqizta jinoyat foizi	<b>33</b>	<b>67</b>		
	N	N	N	N
Avtomobil o'g'irlash	0			
Avtomobil salonidan o'g'irlik	8	34		
Mototsikl o'g'irlash		1		
Velosiped o'g'irlash	12	30		
Chorva mollarini o'g'irlash	7	3		
Qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlash		1		
Bosqinchilik	21	14		
Bosqinchilikka urinish	7	13		
Turar joy daxlsizligini buzish	7	10		
Shaxsiy mulkni o'g'irlash	27	44		
Iste'molchilarni firibgarlik yo'li bilan aldash	13	112	5	2
Poraxo'rlik	2	89		
Talonchilik	1	8		
Ayollar: jinsiy huquqbuzarliklar	1	1		
Hujum va tahdid	10	31		
<b>Barcha jinoyatlar</b>	<b>116</b>	<b>391</b>	<b>5</b>	<b>2</b>
<b>To'qqiz jinoyat</b>	<b>80</b>	<b>163</b>		

Barcha jinoyatlar uchun ichki ishlar organlariga xabar berish darajasi 23% ni tashkil etdi. To'qqizta asosiy jinoyat bo'yicha bu ko'rsatkich biroz yuqoriroq yoki 33% ni tashkil etdi.

Habar berish ko'rsatkichlari jinoyat turlari bo'yicha sezilarli farqlarni ko'rsatadi. Eng past ko'rsatkichlar iste'molchilarni firibgarlik yo'li bilan aldash va poraxo'rlik kabi umumiy bo'lmagan jinoyatlar uchun. Bunday jinoyatlar haqida ichki ishlar organlariga deyarli xabar berilmaydi. Iste'molchilarni firibgarlik yo'li bilan aldash holatlarining kichik bir qismi yuzasidan iste'molchilar huquqini himoiya qilish organlariga xabar qilinadi.

Xususiy shaxs yoki davlat mansabdorlarining pora so'rashi haqida ichki ishlar organlari, prokuror yoki boshqa davlat organlariga deyarli hech qachon xabar berilmaydi.

Har xil turdagi mulkiy jinoyatlar bo'yicha habar berish darajasi biroz yuqoriroq. Bosqinchilik 50% atrofida va shaxsiy o'g'irliklar taxminan 40% ni tashkil qiladi. Zo'ravonlik jinoyatlari jabrlanuvchilar tomonidan bir xil darajada past xabar berish darajasini ko'rsatadi (uchdan biridan kamroq holatlar bo'yicha xabar berilgan).

## 6.2 Habar berish va bermaslikning sabablari

Ichki ishlar organlariga xabar bermagan jabrlanuvchilarga xabar berishdan bosh tortish qarorlari haqida bir qator savollar berildi. Barcha jinoyatlar va jinoyat turlari bo'yicha natijalar 6.2-jadvalda keltirilgan. Barcha jinoyatlar uchun foizlar quyi qatorda keltirilgan. Jinoyatlarning ayrim turlari uchun foiz asoslari ko'pincha ancha past bo'lganligi sababli, bu natijalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish kerak.

Murojaat qilishning sabablari juda xilma-xildir. Umuman olganda, eng tez-tez tilga olingan sabablar bu hodisaning "yetarli darajada jiddiy emasligi" (24%), "ichki ishlar organlari uchun nomaqbul" (16%) "ichki ishlar organlari hech narsa qila olmadi" / "dalil yo'qligi" (13%) va "O'zim hal qildim" (10%). Ichki ishlar organlariga ishonchsizlik yoki repressiyadan qo'rqish haqidagi javoblar kamdan-kam tilga olinadi (ichki ishlar organlarini yoqtirmaslik: 6%; repressiyadan qo'rqish: 2%). Bir nechta jabrlanuvchilar xabar berishdan bosh tortish uchun sug'urta yo'qligini ta'kidladilar.

Zo'ravonlikdan jabrlanganlarning 10 foizi jinoyatchi ularga tanish bo'lganligi va/yoki muammoni

o'zlari hal qilganlari uchun jinoyat haqida xabar bermaganliklarini ko'rsatadilar.

Xususiy shaxs yoki davlat mansabdorlari tomonidan pora olish bo'yicha, aytilgandek, deyarli hech qachon murojaat qilinmagan. Xabar bermaslik sabablari har xil. 42 foiz respondent voqea huquqni muhofaza qilish idoralariga aloqasi yo'qligi va 30 foiz respondent huquqni muhofaza qilish organlari bu borada hech narsa qilmasligini aytdi. Ularning 17 foizi huquqni muhofaza qilish idoralari hech narsa qila olmaganligini aytdi. Faqat to'rt foizi voqea yetarlicha jiddiy emasligini aytdi.

Xabar bergan jabrlanuvchilardan qaysi sabab(lar) bilan voqea haqida xabar berishga qaror qilganliklari so'ralgan. Javoblar bir xil edi (natijalar uchun 6.3-jadvalga qarang). Hozirgacha xabar berishning eng keng tarqalgan sababi mulkni qaytarib olish istagi edi. Bu javobni jabrlanganlarning uchtadan ikkitasi bergan. Hujum va tahdidan jabrlanganlari ko'pincha "uning yana sodir bo'lishiga to'sqinlik qilish" haqida gapiradilar. Ajablanarlisi shundaki, sug'urta qoplamasi pastligi hisobga olinsa, sug'urta kamdan-kam hollarda xabar berish uchun sabab sifatida qayd etilgan.

**6-2-jadval. Har bir alohida jinoyat bo'yicha ichki ishlar organlariga xabar berish uchun ko'rsatilgan sabablar soni va barcha jinoyatlar uchun sabablarning umumiy foizi. (har bir jinoyatning oxirgi voqeasi asosida)**

	Mulkni qaytarish uchun N	Sug'urta N	Jinoyat /jiddiy holatlar yuzasidan xabar berish kerak N	Qidiruvdagi jinoyatchi ushlanishi/jazolanishi kerak N	Takroriy jinoyatni oldini olish uchun N	Yordam Olish uchun N	Boshqa sabablar N	Sug'urtalanmagan N	[bilmayman /eslay olmayman] N
Transport vositasini olib qochish									
Avtomobil salonidan o'g'irlik	8				1				
Mototsikl o'g'irlik	12								
Velosiped o'g'irlik									
Chorva mollarini o'g'irlik	2								
Qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlik									
Uy-joy, omborxonaga yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o'g'irlik	18			4	1				
Talunchilikka suiqasd	4		1	1	2				
Turar joyi daxlsizligini buzish	7		2		4				
Shaxsiy mulkni o'g'irlik	27			2	0				
Iste'molchilarni fribgarlik yo'li bilan aldash	3			2	1	4	3		
Poraxorlik	2								
Talunchilik				1					
Hujum va tahdid (faqat erkaklar)*				0	5				
Ko'rsatilgan sabablarning barchasi	81	2	3	10	14	4	3	0	0
Barcha jinoyatlar foiz hisobida	69	2	3	9	12	3	3	0	0
* Xabar berish sabablari ayollardan so'ralmagan									

**6-3-jadval. Har bir alohida jinoyat uchun ichki ishlar xodimiga xabar bermaslik sabablari soni va barcha jinoyatlar uchun birgalikda ko'rsatilgan sabablar foizi (har bir jinoyatning oxirgi voqeasi asosida)**

	Etarficha jiddiy emas / yoqotish yo'q /	Uchun mos emas huquqni muhofaza qilish / huquqni muhofaza qilish kerak emas N	Huquqni muhofaza qilish organlari hech narsa qila olmadi/ dalil yoqligi xohlamadi N	Huquqni muhofaza qilish organlari bu haqda hech narsa qilmaydi N	Huquqni muhofaza qilish organlaridan qo'rqish/ yoqitmaslik/ huquqni muhofaza qilish organlariga atalashishni N	Buning o'rniga boshqa organlarga N	Buni o'zim hal qildim / hal qildi / menga ma'lum N	Ishonch komil emas N	Re-pressiyalardan qo'rqish N	Noqulay/ huquqni muhofaza qilish organlari juda uzoqda/ juda ko'p muammo N
Transport vositasini olib qochish										
Avtomobil salonidan o'g'irlash	10	6	2	6	5	0	2	1	0	0
Mototsikl o'g'irlash		1								
Velosiped o'g'irlash	13	7	4	2	0	0	3	0	0	0
Chorva mollarini o'g'irlash			1				1			
Qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlash		1								
Uy-joy, omborxon va yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o'g'irlik	3	5	2	0	2	0	3	1	0	0
Talunchilikka suiqasd	7	3	2	0	0	0	0	0	0	1
Turar joyi daxtsizligini buzish	4	1	2	1	0	0	0	0	0	0
Shaxsiy mulkni o'g'irlash	12	6	13	5	1	0	5	1	1	2
Iste'molchilarni fribrgarlik yo'li bilan aldash	3			2	1	4	3			
Poraxo'rlilik	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4
Talunchilik	4	1	1	1	0	0	2	0	0	1
Hujum va tahdid (faqat erkaklar)*	0	6	3	0	2	0	2	0	0	0
Ko'rsatilgan sabablarning barchasi	60	41	34	21	15	8	25	7	5	8
Barcha jinoyatlar foiz hisobida	24	16	13	8	6	3	10	3	2	3

## 6.3 Ichki ishlar organlari ishidan qoniqish

Nihoyat, barcha murojaat qilgan jabrlanuvchilardan ichki ishlar organlarining o'z murojaatlarini ko'rib chiqish usulidan qoniqishlari yoki yo'qligi so'ralgan. Jabrlanuvchilar to'la qoniqtirdi, qisman qoniqtirdi, na qoniqtirdi na qoniqtirmadi, biroz norozi yoki juda noroziligini ko'rsatishlari mumkin edi. 6.4-jadvalda to'qqiz va o'n to'qqiz turdagi jinoyatlarning alohida to'plamlari bo'yicha natijalar keltirilgan. Jinoyat turlari bo'yicha natijalar alohida e'tibor bilan talqin qilinishi kerak, chunki ularning soni juda kam. Jadvalning pastki qismida barcha jinoyatlar bo'yicha foizlarda qoniqish darajasi ko'rsatilgan.

Barcha o'n to'qqizta jinoyatdan jabrlanganlarning 41 foizi juda norozi bo'lgan. Yana 23 foizi norozi. Xabar bergan jabrlanuvchilarning 64 foizi ichki ishlar organlarining ularga nisbatan qilgan muomalasidan biroz yoki juda norozi. Xabar bergan jabrlanuvchilarning uchdan biridan kamrog'i (29%) to'la yoki qisman qoniqish hosil qilgan. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, agar xabar bergan jabrlanuvchilar ichki ishlar organlari xizmatlarining iste'molchilari sifatida qaralsa, ko'pchilik norozi mijozlardir.

6-4-jadval. Ichki ishlar organlariga qilgan murojaatingiz natijasidan qoniqdingizmi?

	Juda qoniqdim	Qoniqdim	Na qoniqdim, na qoniqmadim	Qoniqmadim	Umuman qoniqmadim	[Bilmayman / eslay olmayman]	O'rtacha ball 1 dan 5 gacha (qancha yuqori bo'lsa, shuncha qoniqish darajasi yuqori)
Transport vositasini olib qochish				0			
Avtomobildan o'g'irlik		1	1	4	2	1	1.9
Mototsikl o'g'irlash							
Velosiped o'g'irlash	1	5	2		4		2.9
Chorva mollarini o'g'irlash	2	1		2	2		2.9
Qishloq xo'jaligi texnikasi o'g'irlash							
Uy-joy, omborxonalar yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o'g'irlik	4	3	1	2	10	2	2.2
Talunchilikka suiqasd	2		1	3	1		2.9
Turar joy daxlsizligini buzish	2	1		2	2		2.9
Shaxsiy mulkni o'g'irlash	4	5	1	7	10		2.5
Iste'molchilarni fribgarlik yo'li bilan aldash		0		6	7		1.5
Poraxo'rlik					2		1.0
talunchilik	0	1					4.0
Ayollar: jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar					1		1.0
Hujum va tahdid	0	1	0	0	1	0	2.5
<b>Barcha jinoyatlarning foizi</b>	<b>13%</b>	<b>16%</b>	<b>5%</b>	<b>23%</b>	<b>41%</b>	<b>3%</b>	<b>2.3</b>

Xabar bergan jabrlanuvchilardan qoniqmaganliklarining sabablari so'ralgan (natijalar uchun 6-5-jadvalga qarang). Eng tez-tez tilga olingan sabablar "yetarlicha ish qilmagan" (49%), "huquqbuzarni ushlamagan" (22%)

va "qiziqmagan" (36%). Qoniqmagan jabrlanuvchilarning to'qqiz foizi ichki ishlar organlari "mol-mulkimni qaytarib bermadi", shuningdek, 9 foizi ularga to'g'ri ma'lumot berilmaganini aytdi.

**6-5-jadval. Nima uchun ichki ishlar organlariga murojaat sizni qoniqtirmadi, degan savolga berilgan javoblar soni va barcha jinoyatlar bo'yicha foizlar.**

	Yetarli xarakat qilishmadi N	Qiziqmadilar N	Jinoyatchi topilmadi yoki ushlanmadi N	Mulkimni qaytarib olmadim (buyum) N	Meni ma'lumot to'g'ri berilmadi N	Menga to'g'ri munosabatda bo'lmadilar /muloyim bo'lmadilar N	Sekin yetib kelishdi N	Boshqa sabablar N
Transport vositasini olib qochish								
Avtomobil salonidan o'g'irlik	5		3					
Mototsikl o'g'irlik	1		3					
Velosiped o'g'irlik	3		2	1				
Chorva mollari o'g'irlik	3		2	1				
Qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlik	8	1	3		3		1	1
Uy-joy, omborxonalar yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o'g'irlik	3		1		2			
Talanchilikka suiqasd	4		2		2			
Turar joy daxlisizligini buzish	10		7		1			
Shaxsiy mulkni o'g'irlik	8		0	8				3
Iste'molchilarni fribgarlik yo'li bilan aldash	2							
Poraxo'rlik	4				1	3	1	
talonchilik	48	1	21	9	9	3	2	4
Erikaklarga nisbatan zo'ravonlik	49	1	22	9	9	3	2	4
Barcha ko'rsatilgan sabablar								
<b>Foiz</b>								

## 6.4 Jabrlanganlarning javoblari bo'yicha xalqaro qiyosiy xulosalar

Ushbu paragrafda biz jinoyatdan jabrlanganlar haqida xabar berish natijalari xalqaro xulosalar bilan qanday solishtirilishini ko'rib chiqamiz. Biz birinchi navbatda mamlakatlar bo'yicha hisobot ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz.

Hisobot ko'rsatkichlari vaqt o'tishi bilan nisbatan barqaror ekanligi ma'lum bo'lganligi sababli, biz 2004/2005 yoki undan keyingi yillardagi milliy tadqiqotlar natijalarini ushbu sharhga kiritdik.



6-6-jadvallarda mulkiy jinoyatlar va zo'rvonlik jinoyatlari natijalari ko'rsatilgan (%)

**6-6-jadvallar. To'rt turdagi mol-mulkga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar va uchta zo'rvonlik jinoyatlari haqida murojaatlar bo'yicha ko'rsatkichlarni xalqaro taqqoslash**

		Avtomobil o'g'irlash	Avtomobil salonidan va avtomobil qismini	O'g'irlik	Shaxsiy mulkni o'g'irlash	Talanchilik/qurolli talonchilik	Jinsiy huquqbuzarliklar (ayollar)	Hujum va zo'rvonlik tahdidi *
<b>O'rtacha qiymatlar</b>		<b>78</b>	<b>56</b>	<b>68</b>	<b>41</b>	<b>42</b>	<b>18</b>	<b>30</b>
Farg'ona vodiysi	2021	--	19	60	38	11	50	24
Qozog'iston	2018	68	32	53	26	38	12	17
Qirg'iziston	2015	60	35	51	24	41	32	20
Gruziya	2020	36	22	42	29	16	9	39
Pekin (Xitoy)	2014	70	49	54	24	37	0 – 4	34
Avstriya	2005	72	77	73	62	48	42	35
Daniya	2005	85	83	82	43	43	18	39
Estoniya	2004	58	48	52	29	39	21	26
Finlyandiya	2005	93	76	68	49	41	27	23
Fransiya	2005	77	64	77	47	44	18	40
Germaniya	2010	76	79	86	43	36	5	24
Gretsiya	2005	73	35	71	40	34	12	22
Vengriya	2005	92	55	76	44	46	27	18
Islandiya	2004	86	66	73	28	41	5	30
Irlandiya	2005	86	62	85	40	38	6	31
Italiya	2005	93	48	78	61	51	1	35
Yaponiya	2019	87	58	55	40	42	14	42
Lyuksemburg	2005	87	71	82	52	39	18	29
Meksika	2004	3	2	3	1	2	3	2
Niderlandiya	2010	95	79	92	54	52	22	33
Yangi Zelandiya	2004	94	65	80	44	52	19	44
Norvegiya	2004	93	70	72	50	59	28	34
Polsha	2004	97	52	62	30	38	19	38
Portugaliya	2005	81	45	55	55	61	22	22
Ispaniya	2005	82	58	63	46	48	16	38
Shvetsiya	2010	93	79	77	52	49	3	35
Shveysariya	2014	75	69	82		45	10	22
Birlashgan Qirollik	2010	87	68	88	59	62	13	37
AQSH	2004	87	64	77	48	61	35	43

Farg'ona vodiysida jabrlanganlarning hozirgi xabar berish ko'rsatkichlari, ayniqsa mulkiy jinoyatlar bo'yicha xalqaro o'rtacha ko'rsatkichdan ancha pastligicha qolmoqda.<sup>14</sup> Talonchilik va zo'rvonlik jinoyati to'g'risida xabar berish xalqaro o'rtacha ko'rsatkichdan ham past (jinsiy tajovvuzga oid hodisalar bo'yicha ko'rsatkich noaniq, chunki juda kam holatlarga asoslangan). Farg'ona vodiysidagi murojaatlarning pastligining sababi, xizmat ko'rsatuvchi sifatida ichki ishlar organlariga ishonch yo'qligi bilan izohlanadi.

Mintaqaning boshqa mamlakatlarida, Qirg'iziston, Qozog'iston va Gruziya, shuningdek, Xitoyda (Pekin) ham past xabar berish ko'rsatkichlari mavjud. XVTga asoslangan eski viktimizatsiya so'rovlari doimiy ravishda sobiq sotsialistik

mamlakatlarda xabar berish darajasi muntazam ravishda past ekanligini ko'rsatdi (Van Dayk, 2008). Bu hol ushbu mamlakatlarda boshqa mamlakatlarga qaraganda kamroq xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan ichki ishlar organlari ish uslubini aks ettirishi mumkin, masalan, G'arbiy Evropa mamlakatlarida va AQShda.

6-8-jadval. Farg'ona vodiysi bo'yicha 2021-yildan boshlab to'qqizta asosiy jinoyatning beshtasi bo'yicha ichki ishlar organlari ishidan qoniqish natijalarini ko'rsatadi. Ushbu natijalarni xalqaro nuqtai nazardan ko'rsatish uchun biz 2004 yildan keyin o'tkazilgan so'rovlar asosida boshqa G'arb davlatlaridan jabrlanuvchilarning ichki ishlar organlaridan qoniqish darajasi bo'yicha natijalarni qo'shdik.

**6-8-jadval. Tanlangan beshta jinoyat bo'yicha jabrlanuvchining ichki ishlar organlaridan qoniqish darajasini xalqaro taqqoslash. Juda va qisman qoniqqanlarning foizi.**

Juda va qisman qoniqqanlarning foizi.	Avtomobildan va avtomobil qismini o'g'irlash %	Bosqinchilik %	Talonchilik / qurolli talonchilik %	Jinsiy huquqbuzarliklar %	Hujum va zo'rvonlik tahdidi %
<b>O'rtacha qiymatlar</b>	<b>51</b>	<b>52</b>	<b>55</b>	<b>48</b>	<b>52</b>
Farg'ona vodiysi	2021	11	32	100	50
Gruziya	2012	32	27	59	58
Qozog'iston	2018	26	28	28	32
Qirg'iziston	2015	40	29	51	60
Avstraliya	2004	65	75	65	66
Avstriya	2005	77	81	50	24
Belgiya	2005	62	71	60	3
Daniya	2005	71	80	67	90
Estoniya	2004	34	31	30	51

14 Yaqinda Yevropa Ittifoqining Asosiy Huquqlar Agentligining 2021-yildagi Jamoat xavfsizligi tadqiqotida bosqinchilik va bosqinchilik haqida politsiyaga xabar berish haqidagi savollar XVTdagi savollar bilan deyarli bir xil. Yevropa Ittifoqida bosqinchilik jinoyatidan jabrlanganlarning o'rtacha xabar berish darajasi 2020-yilda (FRA, 2021) 73 foizni tashkil etgan bo'lsa, Farg'ona vodiysida bu ko'rsatkich 60 foizni tashkil qilgan

Finlyandiya	2005	74	61	81	100	70
Fransiya	2005	53	55	54	3	46
Germaniya	2005	64	74	61	43	62
Gretsiya	2005	42	17	32	99	21
Vengriya	2005	45	36	40	64	39
Islandiya	2005	48	74	62	46	55
Irlandiya	2005	59	64	63	91	56
Italiya	2005	38	44	26	0	53
Yaponiya	2004	46	49	34	17	17
Meksika	2004	35	19	21	0	48
Niderlandiya	1996	72	79	72	42	58
Polsha	2004	42	39	60	74	55
Portugaliya	2005	66	49	38	18	73
Ispaniya	2005	58	58	69	100	78
Shvetsiya	2005	57	80	79	59	65
AQSH	2004	57	54	66	29	60

Mulkiy jinoyatlardan jabrlanganlarning o'rtasidagi qoniqish darajasi ko'pchilik G'arb mamlakatlaridagidan past bo'lib qolmoqda. Zo'rvonlik jinoyatidan jabrlanganlarning qoniqish darajasi G'arb davlatlari bilan bir xil diapazonda, ammo ular yakuniy bo'lishi mumkin bo'lmagan jabrlanganlar sonining juda kamligiga asoslanadi.

Har bir mamlakatda jabrlanuvchining qoniqishiga oid hulosalar qayd qilingan hulosalarga aniq mos keladi.

O'zbekistonning Farg'ona vodiysi, Estoniya, Gruziya, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi jabrlanuvchilar ichki ishlar organlariga nisbatan kamroq murojaat qiladigan mamlakatlarda ham ichki ishlar organlari tomonidan jabrlanganlarning o'zlariga nisbatan muomalasidan qoniqish darajasi nisbatan past bo'ladi. Jabrlanuvchining qoniqish darajasining pastligi jamoatchilikni ichki ishlar organlariga viktimizatsiya haqida xabar berishdan qaytaradi va shu sababli past darajadagi xabar berish holatini davom ettiradi.

# 7 JABRLANGANLAR UCHUN JINOYAT OQIBATLARI

Jinoiy siyosatda jabrlanuvchilar (uning bevosita ta'siriga uchragan va zarar ko'rganlar) uchun oqibatlariga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. XVT so'rovnomasida so'nggi viktimizatsiya hodisasi haqida gapiradiganlarga oqibatlari haqida bir qator

savollar beriladi. Jinsiy tajovuzga oid hodisalar va ayollarga nisbatan zo'rvonlik bilan bog'liq tajribalar bo'yicha savollar o'z-o'zini to'ldirish uchun maxsus modulga joylashtirilganligi sababli, ushbu keyingi savollarning ba'zilari olib tashlandi.

## 7.1 Jinoiy viktimizatsiyaning og'irlik darajasi

So'rovnomada belgilangan jinoiy viktimizatsiyasini aytib o'tgan shaxslarga beriladigan birinchi savol: "Hamma narsani hisobga olsak, voqea siz yoki oilangiz uchun qanchalik og'ir bo'lgan?"

7-1-jadvalda turli jinoiy turlari bo'yicha natijalar keltirilgan.

**7-1-jadval. 3 balli shkala bo'yicha qanchalik og'ir bo'lgan edi. So'nggi besh yil ichida sodir bo'lgan har bir jinoyatning oxirigisi haqida so'ralgan.**

	Juda og'ir %	Og'ir %	Unchalik og'ir emas %	[Bilmayman / eslay olmayman] %	shkala 1 dan 3gacha %	5 yil ichida jabrlanganlar soni hisobga olinadi
Transport vositasini olib qochish	0	100	0	0	2.0	1
Avtomobil salonidan o'g'irlash	18	34	41	7	1.6	42
Mototsikl o'g'irlash	0	0	100	0	1.	1
Velosiped o'g'irlash	4	61	35	0	1.7	42
Chorva mollarini o'g'irlash	21	63	16	0	2.1	9
Qishloq xo'jaligi texnikasini o'g'irlash	0	100	0	0	2.0	1
Uy-joy, omborxonalar yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o'g'irlik	38	34	17	11	2.0	35
Talonchilikka suiqaqd	41	33	25	0	2.2	20
Turar joy daxlsizligini buzish	29	26	37	8	1.8	17
Shaxsiy mulkni o'g'irlash	21	46	30	2	1.9	72
Iste'molchilarni firibgarlik yo'li bilan aldash	13	22	62	3	1.4	131
Poraxo'rlik	15	12	73	0	1.4	91
Talonchilik	2	48	35	15	1.4	9
Ayollar: jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar	69	0	31	0	2.4	3
Hujum va tahdid	29	37	34	0	2.0	41
<b>Barcha viktimizatsiyalar</b>	<b>19</b>	<b>32</b>	<b>46</b>	<b>3</b>	<b>1.8</b>	<b>513</b>

Natijalar shuni ko'rsatadiki, jabrlanuvchilar tomonidan avtomobillar va chorva mollarini o'g'irlash, shuningdek, jinsiy huquqbuzarliklar, tajovuz va tahdidlar eng og'ir deb hisoblanadi.

Bosqinchilik va bosqinchilikka urinish o'rta darajadagi og'ir hisoblanadi. Iste'molchilarni firibgarlik yo'li bilan aldash, poraxo'rlik va avtomashinalarni o'g'irlash kabi holatlar uncha og'irmas hisoblanadi.

## 7.2 Yo'l-transport hodisalari va zo'ravonlik jinoyatlarining sog'liq bilan bog'liq oqibatlari

Jarohat bilan yakunlangan yo'l-transport hodisalarining uchdan ikki qismida jabrlanuvchi jiddiy jarohat olgan, shu sababdan shifokorga murojaat qilgan va/yoki sog'liqni saqlash muassasasiga yoki kasalxonaga borgan. Ularning 40 foizi kasalxonada kamida bir kecha qolgan. Ushbu yuqori nisbatlar jabrlanuvchilarning voqea jiddiyligi haqidagi tasavvurlari bilan mos keladi: ularning uch dan biri hodisani jiddiy, uchinchi esa juda jiddiy deb hisoblaydi (yuqoridagi 7-1-jadvalga qarang).

Zo'ravonlik jinoyati va yo'l-transport hodisalari

natijalarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysida yo'l-transport hodisasida og'ir jarohat olish xavfi zo'ravonlik jinoyati natijasida jarohat olish xavfidan sezilarli darajada yuqori. Erkak respondentlarning 17 nafari (1,2%) o'tgan yili yo'l-transport hodisasi natijasida kasalxonaga yotqizilgan. Zo'ravonlik jinoyati natijasida etkazilgan jarohatlarni davolash uchun faqat bitta erkak (<0,1%) kasalxonaga yotqizilgan. Boshqacha aytganda, Farg'ona vodiysida erkak kishining yo'l-transport hodisasida og'ir jarohat olish xavfi jinoiy hujumga nisbatan yigirma baravar yuqori.

## 7.3 Emotsional ta'sir

Shikastlanishdan keyingi stress bo'yicha adabiyotlarga ko'ra, "jinoyatlar va jiddiy yo'l-transport hodisalari kabi hayotiy voqealarning emotsional ta'sirining muhim ko'rsatkichi jabrlanuvchilarning voqea haqida qanchalik tez-tez o'ylashlaridir"<sup>15</sup>. Jinoyatning og'ir turlaridan jabrlanganlarga Niderlandiya Milliy jamoat xavfsizligi monitoridan olingan navbatdagi savol berildi: "Hodisadan qay darajada ta'sirlangansiz? Siz bu haqda hech

qachon o'ylamaysizmi, ba'zan o'ylab ko'rasizmi, tez-tez o'ylaysizmi yoki bir umr esdan chiqmaydimi? Javoblar toifalari "hech qachon", "ba'zan", "juda tez-tez" va "butun umr esdan chiqmaydi". Oxirgi ikki toifani doimiy emotsional muammolarning ko'rsatkichlari sifatida ko'rish mumkin (Lamet va Wittebrood, 2009).

Natijalar 7-2-jadvalda keltirilgan.

<sup>15</sup> Amerika Psixiatriya Assotsiatsiyasining Ruhiy salomatlik buzilishlarining diagnostik va statistik qo'llanmasiga (DSM IV) ko'ra, agar voqea odatda odam tomonidan intruziv, takroriy eslashlar, qayta yashashning dissotsiativ epizodlari orqali qayta yashasa, odam travmatik stressdan aziyat chekadi. travma ("qayta") va qo'rqinchli tushlar

7-2-jadval. Ohirgi sodir bo'lgan 5 ta katta ta'sir ko'rsatadigan jinoyatdan qay darajada ta'sirlangansiz

	Hech qachon %	Ba'zan bu haqda o'ylayman %	Bu haqda tez-tez o'ylayman %	Faqat shuni o'ylayman %	[Bilmadim] %	N
Uy-joy, omborxonaga yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o'g'rilik	12	42	31	10	5	35
Talunchilik	55	29	0		15	9
Yo'l-transport hodisasi	42	28	27	3	0	64
Ayollar: jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar			100			2
Hujum va tahdid	25	41	28	5	0	41
<b>Beshta jinoyat</b>	<b>31</b>	<b>34</b>	<b>28</b>	<b>5</b>	<b>2</b>	<b>152</b>

Bizning hulosalarimiz shuni ko'rsatadiki, takroran eslash jarayoni dalolat beradigan uzoq davom etadigan emotsional muammolar ("tez-tez eslayman" yoki "har doim eslaymani") jinoyatchilar ma'lum bo'lgan holdagi tajovuz va tahdidlardan

jabrlanganlar (43%) va jinsiy huquqbuzarlik jabrlanganlar ko'p uchraydi. (100%). Bosqinchilik (41%) va yo'l-transport hodisalarida (30%) esa, har uchinchi hodisa uzoq davom etadigan emotsional muammoga sabab bo'lganga o'xshaydi.

## 7.4 Og'ir jinoyatdan jabrlanganlarga ko'rsatiladigan xizmat va qo'llab-quvvatlash

Jabrlanuvchilar o'z ishi bo'yicha tergov harakatlari haqida ichki ishlar xodimidan ma'lumot olganmi, mahalla idorasi yoki ixtisoslashgan muassasadan ruhiy qo'llab quvvatlash olganmi yoki bunday yordamdan mamnun bo'lganmi, chuqur ta'sir qiladigan jinoyatlarning barcha jabrlanuvchilariga to'rtta savol berish bilan baholanadi, ya'ni

bosqinchilik, talonchilik, jinsiy huquqbuzarliklar va hujum va tahdidlar.

Ushbu to'rtta huquqbuzarlik bo'yicha to'rtta savolga berilgan javoblar soni 7-3-jadvalda ko'rsatilgan. To'rt turdagi jinoyatlar bo'yicha natijalar jadvalning o'ng tomonidagi ustunda foizlarda ifodalanadi.

### Ichki ishlar organlari tomonidan jabrlanuvchiga ishning borishi yuzasidan ma'lumot berish

Tanlangan to'rt turdagi jinoyatlardan jabrlanganlardan ichki ishlar organlari ularni ishi borishi bo'yicha xabardor qilganmi yoki yo'qmi deya so'ralgan. Barcha jabrlanganlarning 41%i ichki ishlar organlaridan "o'z ishi" haqida ma'lumot olgan. Jabrlanuvchilarning aksariyati bosqinchilik ishlari borishi haqida xabardor

qilingan, ammo zo'ravonlik jinoyati haqida murojaatlari yuzasidan emas. Yuqorida muhokama qilinganidek, ichki ishlar organlari tomonidan qilingan muomaladan qoniqmaslik sabablaridan biri hech qanday ishing borishi haqidagi keyingi ma'lumotlarining taqdim etilmaganligidir (6.5-jadvalga qarang).

7-3-jadval. To'rtta band bo'yicha javoblar to'rt darajada xil ta'sirga ega jinoyatdan jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq

		Bosqinchilik	Talonchilik	Jinsiy huquqbuzarliklar (ayollar)	Hujum va tahdid (erkaklar)	To'rt jinoyat birgalikda	
		N	N	N	N	N	%
Siz ishningiz bo'yicha nima bo'lganligi haqida ichki ishlar organlaridan biron bir ma'lumot oldingizmi?	Ha	11	0		0	11	41
	Y'oq	8	1		5	14	
	Bilmayman	2				2	
Ushbu voqeadan keyin siz yoki sizning uyingizdagi boshqa birovning mahalla idorasi bilan aloqasi bormi?	Ha	10	0	1	4	15	17
	Y'oq	25	9	1	37	72	
	Bilmayman					0	
Ushbu voqeadan keyin sizning uyingizdagi kimdir jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan idora bilan muloqot qilganmi?	Ha	1	0	0	0	1	1
	Y'oq	35	9	2	41	87	
	Bilmayman						
Sizningcha, jabrlanganlarga yordam berish bo'yicha ixtisoslashgan idoraning xizmatlari ushbu voqeadan keyin siz yoki sizning xonadoningizdagi boshqa birov uchun foydali bo'ldimi?	Ha	5	4		14	23	29
	Y'oq	25	5		13	43	
	Bilmayman	4	1		14	14	
* Ko'pgina respondentlar jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ixtisoslashgan idoralar borligini (bo'lishi mumkinligini) bilmaganliklarini ta'kidladilar.							

## Mahalla qo'mitasi

Jabrlanuvchilardan viktimizatsidan keyin mahalla idorasi xodimlari bilan aloqada bo'lgan-bo'lmaganligi so'ralgan. 35 nafar bosqinchilikdan jabrlanganlarning o'ntasi yoki har uchinchisi mahalladan kimdir bilan aloqada bo'lgan. Jinsiy huquqbuzarlikdan 2 jabrlanganlarning biri ham. Talonchilikdan jabrlanganlarning hech biri va

tajovuzdan jabrlanganlarning juda oz qismi (41 kishidan to'rttasi) mahalla idorasi bilan muloqot qilmagan. Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash asosan ichki ishlar organlarining mas'uliyati sifatida ko'riladi, ular ko'pincha yordam bera olmaydilar agar jabrlanganlarning qoniqish darajasi pastligini hisobga olinsa.



## Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash

To'rt turdagi jinoyatdan jabrlanganlardan qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan idoradan (ma'lumot beruvchi yoki jabrlanganlarga amaliy va ruhiy yordam beradigan idora) yordam olganlarni yoki yo'qmi, degan savol so'ralgan. Agar yordam olinmagan bo'lsa, bunday yordam ular uchun foydali bo'larmidi, deya so'raldi. Ushbu ikkita savol boshidanoq XV Tning asosiy elementlari to'plamiga tegishli edi.

88 jabrlanuvchidan faqat bittasi jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ixtisoslashgan idora bilan muloqotda bo'lganini aytdi. Bu xulosa shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysida jabrlanganlarga ixtisoslashtirilgan yordam ko'rsatish imkoniyati yo'q, faqat mahalla idoralari tomonidan ayrim jabrlanganlarga (asosan bosqinchilik jinoyatidan) ko'rsatilayotgan yordamdan tashqari.

G'arbiy Evropa mamlakatlarida og'ir jinoyatdan jabrlanganlarning 9 foizi 2005 yilda bunday maxsus yordam olgan (Van Dayk, Van Kesteren va Smit, 2007). Bu foiz 2012 yildagi Yevropa Ittifoqining jabrlanuvchilar to'g'risidagi direktivasi ta'siri ostida oshgan bo'lishi mumkin, u Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarni barcha og'ir jinoyatlardan jabrlanganlarga mazkur xizmatlarni taqdim etishga majbur qiladi.

Yevropa Ittifoqining Fundamental Huquqlar Agentligining 2020 yilda o'tkazgan so'roviga ko'ra, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda barcha zo'raonlik yoki jinsiy zo'raonlik hodisalaridan jabrlanganing o'rtacha olti foizi maxsus qo'llab-quvvatlash xizmatlari bilan aloqada bo'lgan (FRA, 2021). Qozog'istonda jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash idoralarni jalb qilish darajasi 2018 yilda to'qqiz foizni tashkil etdi, bu asosan zo'raonlikdan jabrlangan ayollardan iborat bo'lib, ular uchun maxsus xizmatlar tashkil etilgan.

Bunday xizmatlarni olmaganlardan, mazkur xizmatlardan olgan bo'lganingizda mamnun bo'larmidingiz, deya so'ralgan. O'zbekistonning Farg'ona vodiysidajabrlanganlarning 29 foizi bunday yordam ularning ishida foydali bo'lardi, degan fikrda. Zo'raon jinoyatlardan jabrlanganlarning yarmi bunday yordam olishdan mamnun bo'lishlarini aytdi. Ko'pgina respondentlar bunday tashkilotlar mavjudligini bilmasliklarini ixtiyoriy ravishda aytishdi. Ayollarga nisbatan zo'raonlik haqida alohida bo'limda mazkur savol afsuski berilmagan. Shubhasiz, O'zbekistonda jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyoj zo'raonlik jinoyatidan jabrlanganlar, jumladan, ayollarga nisbatan zo'raonlikdan jabrlanganlar orasida yuqori .

# 8 JINOYATCHILIK VA JINOYATCHILIKNI NAZORAT QILISH BO'YICHA JAMOATCHILIK FIKRI

## 8.1 Havotir and jazolanish hissi

XVTning standart so'rovnomasi jinoyatdan qo'rqish/xavotir hissi haqida ikkita savolni o'z ichiga oladi.

Joylardagi xavfsizlik masalasi 1960-yillarda AQShda Gallup Inc. tomonidan tashabbus qilingan va o'sha paytdan boshlab butun dunyo bo'ylab, shu jumladan XVT so'rovlarida q'llanilgan dunyodagi jinoyatchilikka oid eng birinchi va eng ko'p q'llaniladigan so'rov savolidir.

Farg'ona vodiysi aholisining katta qismi tunda o'z hududida sayr qilishda xavotir his qiladi (faqat 6 foizigina xavotir his qiladi). 8-2-jadvalda ko'rsatilganidek, xavotirlanadigan odamlar ulushi dunyoning boshqa mamlakatlaridagi XVT tadqiqotlarida aniqlangan xalqaro o'rtacha 25% dan ancha past.

Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi Farg'ona vodiysida ham yoshlar, ayollar va shahar aholisi biroz havotirni his qilishadi, lekin ular orasida ham ko'pchilik o'zini xavfsiz his qiladi.

XVTdagi ikkinchi standart savol o'z uyida bosqinchilik sodir bo'lishi ehtimoli haqidagi tasavvurlar bilan bog'liq. Farg'ona vodiysidagi yashovchi deyarli barcha bui umuman bo'lishi mumkin emas yoki ehtimoli past deb hisoblaydilar. Xavfni baholash bo'yicha ushbu ijobiy natijalar vodiydagi bosqinchilikning nisbatan past ko'rsatkichini aks ettiradi.

8-1-jadvalda ushbu ikki savol bo'yicha va Ishchi guruh so'rovi bo'yicha qo'shilgan giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarga munosabat bo'yicha bir savol bo'yicha natijalar ko'rsatilgan.

8-1-jadval. Farg'ona vodiysida jinoyatdan qo'rqish va jazolanishga munosabat, O'zbekiston

		%
Qorong'i tushganda o'z hududingizda yolg'iz yurganda o'zingizni qanchalik bexatar his qilasiz?	Juda bexatar	73
	bexatar	18
	Biroz xavfli	3
	Juda xavfli	4
	Qorong'i tushgandan keyin hech qachon tashqariga chiqmayman	3
	[Bilmayman]	0
Kelgusi o'n ikki oy ichida kimdir biror narsani o'g'irlash uchun sizning uyingizga bostirib kirishga harakat qilish ehtimoli haqida nima deysiz?	Umuman ehtimoldan yiroq	80
	Unchalik ehtimoli yo'q	16
	Juda ehtimol	3
	Ehtimol	0
	[Bilmayman]	1
Giyohvand moddalarni sotish maqsadisiz iste'mol qilgan va saqlagan shaxslarga, sizningcha, qanday darajada jazo qo'llanilishi kerak?	Og'ir	51
	O'rtacha	27
	Juda oq'ir	15
	Jazodan ozod qilish	3
	[Bilmayman]	4

Farg'ona vodiysida shaxsiy va maishiy jinoyatlar viktimizatsiyasi to'g'risidagi ijobiy tasavvurlar 3-bobda keltirilgan zo'ravonlik, talonchilik va bosqinchilikning haqiqiy viktimizatsiya darajasi pastligini aks ettiradi.

Aytganimizdek, asosiy XVT so'rovnomasida xavfsizlik hissi haqida savollarning kichik

to'plami, shuningdek, yashaydigan hududdagi ichki ishlar organlari faoliyati haqidagi uchinchi savol mavjud. Farg'ona uchun ba'zi natijalarni xalqaro nuqtai nazardan taqdim etish mumkin. 8-2-jadvalda Farg'ona vodiysining 2021-yildagi natijalari va jinoyatchilik va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha uchta fikrga oid 2010 yil yoki undan keyingi yillarda o'tkazilgan so'rovlarning xalqaro natijalari ko'rsatilgan.

**8-2-jadval. Jinoyat va jinoyatchilikni nazorat qilish haqidagi fikrlar xalqaro nuqtai nazardan. (oldin o'tkazilgan tadqiqotlarning manbasi XVT ma'lumotlar bazasidir)**

		Qamoqqa olish (bosqinchi- retsivist jinoyat sodir etgan taqdirda)%	Ichki ishlar organlari yaxshi ishlashyapti %	Ko'chada behavotir emas %	Bosqinchilikning ehtimoli (katta) %
<b>O'rtacha barcha mamlakatlar uchun</b>		<b>33</b>	<b>78</b>	<b>18</b>	<b>21</b>
Farg'ona vodiysi, O'zbekiston	2021	-	92	6	3
Gruziya	2020	26	78	22	25
Qozog'iston	2018	28	60	25	30
Qirg'iziston	2015	27	-	33	40
Pekin	2014	46	39-73	24	26
Kanada	2010	47	-	11	13
Germaniya	2010	19	-	16	16
Niderlandiya	2010	32	82	12	16
Shvetsiya	2010	27	-	9	18
Birlashgan Qirollik	2010	49	-	17	21
Barbados	2014	-	-	10	-
Bagama orollari	2014	-	-	17	-
Yamayka	2014	-	-	28	-
Surinam	2014	-	-	23	-
Trinidad va Tobago	2014	-	-	21	-

8-2-jadvalda ko'rsatilganidek, Farg'ona vodiysida o'z hududidagi ichki ishlar organlari faoliyati to'g'risida jamoatchilik fikri xalqaro nuqtai nazardan juda ijobiydir (92%). Hech bir G'arbiy Evropa mamlakatlari bo'lgan oldingi tadqiqotlarda shunga o'xshash qoniqish ko'rsatkichlari yo'q (Van Dayk, Van Kesteren va Smit, 2007).

O'zbekistonda bosqinchilik ehtimoli nisbatan juda past deb baholanadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari, masalan, Gollandiya va Buyuk Britaniyaga qaraganda, uy xo'jaligi xavfsizligi yaxshilanganligi sababli bosqinchilik jinoyatlari bo'yicha ko'rsatkich 2005 yildan beri sezilarli darajada pasaydi. Mintaqadagi boshqa mamlakatlarida ham xavf tushunchasi ancha yomon ko'rinmoqda.

## 8.2 Jinoiy odil sudlov organlari faoliyatidan qoniqish

8-3-jadvalda ichki ishlar xodimi, prokuratura va sudlarning ish faoliyatiga oid savollarning natijalari keltirilgan. Boshqa mamlakatlarda, jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston va Gruziyada aniqlanganidek, ichki ishlar organlari haqidagi fikrlari

prokuratura va sudlar, ko'pchilik odamlarning ishlari kam yoki umuman tushmagan idoralar faoliyati (respondentlarning ko'p foizi bilmayman deb javob berishadi) haqidagi fikrlaridan ko'ra ijobiyroqdir

**8-3-jadval. Jinoiy odil sudlov organlari o'z ishini qanchalik yaxshi bajarmoqda?**

	Juda yaxshi %	Yaxshi %	Yahshimas %	Juda yomon ish %	Bilmayman %
Ichki ishlar organlari	54	39	3	1	4
Prokurorlar	36	45	3	1	16
Sudlar	34	43	3	1	19

Sizningcha, sizning hududingizdagi ichki ishlar organlari va huquq-tartibot idoralari jinoyatchilikni qanchalik nazorat qila oladi? ular yaxshi ishlayapti deb ayta olasizmi?

Prokurorlardan kutilayotgan barcha ishlarni hisobga olsak, ular yaxshi ishlayapti deb ayta olasizmi?

Sizning hududingizdagi sudlardan kutilayotgan barcha ishlarni hisobga olsak, ular yaxshi ishlayapti deb ayta olasizmi?

## 8.3 Boshqa jinoyat tahdidlari haqidagi tasavvurlar

So'rovnoma kutilayotgan jinoyatchilikdagi tendentsiyalariga oid ba'zi savollar qo'shildi. Gruziya, Qozog'iston va Qirg'izistonda o'tkazilgan so'rovlarda beshta banddan ikkitasi ham ishlatilgan va shuning uchun ularni solishtirish mumkin. 8-4 va 8-5-jadvallarda natijalar ko'rsatilgan.

O'zbekistonning Farg'ona vodiysidagi jamoatchilik jinoyatchilikning umumiy darajasidagi so'nggi tendensiyalarga nisbatan yaqqol ijobiy munosabatda. 67 foiz so'nggi besh yil ichida umumiy jinoyatchilik kamaygan, deb hisoblaydi. So'nggi paytlarda sodir bo'layotgan jinoyatchilik tendentsiyalari haqida jamoatchilik fikri Gruziya va Qirg'izistonga qaraganda ancha ijobiy.

Jamoatchilik kayfiyati jinoyatchilikning kelajakdagi tendentsiyalari haqida mintaqadagi boshqa uchta davlatga qaraganda ancha ijobiyroq. 85 foiz aholi jinoyatchilik darajasining yanada kamayishini kutmoqda.

Korrupsiya va giyohvandlik tendentsiyalari haqidagi fikrlar ham ko'p jihatdan ijobiy: jamoatchilikning uchdan ikki qismi O'zbekistonda ushbu jinoyatlar soni kamaygan deb hisoblaydi. Va nihoyat, jamoatchilikning katta qismi so'nggi besh yil ichida jinoiy to'dalar/qonundagi o'g'rilarning obro'si pasaygan deb hisoblaydi, bu 2020 yilda Gruziyada bo'lganidan keskin farq qiladi (Van Dayk va boshq., 2021).

8-4-jadval. Farg'ona vodiysi, Gruzija, Qozog'iston va Qirg'izistonda jinoyat tahdidlari haqidagi tasavvurlar

		Farg'ona vodiysi * %		Gruzija %	Qozog'iston %	Qirg'iziston %
Nima deb o'ylaysiz, O'zbekistonda oxirgi 5 yilda jinoyatchilik darajasi ancha oshdimi, oshdimi, kamaydimi yoki ancha kamaydimi?	Ancha oshdi	7	21	65	23	46
	Oshdi	14				
	Shundayligicha qoldi	5	67	29	27	26
	kamaydi	32				
	Ancha kamaydi	35				
	[Bilmayman]	6				
	O'zbekistonda jinoyat yo'q	1				
Sizingcha, keyingi 5 yil ichida O'zbekistonda jinoyatchilik darajasi ancha oshadimi, oshadimi, kamayadimi yoki ancha kamayadimi?	Anhca oshadi	1	7	27	18	24
	Oshadi	6				
	Shundayligicha qoladi	4				
	Kamayadi	62	85	37	42	32
	Ancha kamayadi	23				
	[Bilmayman]	5				
				25	20	18

\* O'zbekistondagi so'rovda respondentlarga beshta javob toifasi taklif qilingan, qolgan mamlakatlarda esa atigi uchta. Biz taqqoslash uchun "ancho oshdi" va "oshdi" javoblarini bitta toifaga birlashtirdik va "kamaydi" va "ancho kamaydi" savollari uchun ham xuddi shunday qildik.

8.5-jadvalda joriy so'rovnomadagi qo'shimcha savollarning ba'zi xulosalari keltirilgan.

## 8-5-jadval. O'zbekistonning Farg'ona vodiysidagi jinoyatchilik tahdidlari haqidagi tasavvurlar

	Ancha oshdi %	Oshdi %	Shundayligicha qoldi %	Ancha kamaydi %	Kamaydi %	[Bilmayman] %	Tahdid yo'q * %
A1A. Oxirgi besh yil ichida O'zbekistonda korrupsiya darajasi <i>*O'zbekistonda korrupsiya yo'q</i>	8	11	10	42	21	7	1
Sizningcha, so'nggi 5 yil ichida O'zbekistonda giyohvandlik darajasi <i>*O'zbekistonda giyohvandlik yo'q</i>	3	7	5	47	24	11	2
Nima deb o'ylaysiz, so'nggi 5 yil ichida jinoiy to'dalarning obro'si. <i>* Jinoyatchilar endi hech qanday obro'ga ega emaslar</i>	2	6	5	55	25	8	

## 8.4 Boshqa masalalar

So'rovnoma XVTning oldingi bosqichlarida ishlatilmagan yana bir nechta bandlar mavjud. Natijalar shu yerda keltirilgan.

- Sizning do'stlaringiz yoki yaqinlaringizdan birontasi o'z farzandlariga yoki tarbiyalanuvchilariga nisbatan jismoniy jazo qo'llaganini eshitganmisiz yoki ko'rganmisiz?

Ikki foiz (48 respondent) o'z farzandlariga nisbatan jismoniy jazo qo'llayotgan odamlarni ko'rganliklarini ta'kidladilar. Uchta holatda ichki ishlar organlari aralashgan. Respondentlar ushbu aralashishdan qoniqishganlarini ta'kidladilar.

- Jamiyatimizda erta nikohlar mumkinligini asosiy sabablari nimada?

Respondentlarning qariyb oltmish foizi bu an'anaviy odat ekanini aytdi. 12 foizi bunga yoshlarning erta jinsiy yetukligi sabab bo'lganini aytdi. 11 foiz bu nikohlar qarindoshlar tomonidan majburan sodir bo'lgan deb hisoblaydi. 10 foizi bu oilalarning iqtisodiy sabablari bor, chunki ular ta'limga sarmoya kiritishni istamaydilar va erta turmush ko'p oilalar uchun tejamli ekanligini aytdi.

- Siz shaxsan boshlig'ingiz tomonidan baqiriq, haqorat va tajovuz shaklida o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlariga duch keldingizmi?

36 respondent (1,2%) shunday ekanligini ta'kidladi. Yana shuncha respondent javob berishdan bosh tortdi.

# 9 AHOLINING ICHKI ISHLAR ORGANLARI BILAN MULOQOTI

XVT doirasida aniqlangan jabrlanuvchilardan, muhokama qilinganidek, murojaatlari bo'yicha ularning ichki ishlar organlari bilan bo'lgan muloqotlari va qoniqish darajasi haqida so'raladi. AQSh (BJS, 2018), Buyuk Britaniya (Ichki ishlar vazirligi, 2011) va Gollandiya kabi ko'plab mamlakatlarda fuqarolarning ichki ishlar organlari bilan kengroq muloqoti bo'yicha viktimizatsiya

so'rovlariga savollar to'plami va fuqarolarning bundan qoniqish darajasi haqida so'rov qo'shildi. Farg'ona vodiysidada o'tkazilgan so'rovda 2011-yilda Britaniyada o'tkazilgan Jinoyatdan jabrlanganlar bo'yicha tadqiqotdan olingan jinoyatlar to'g'risida xabar berishdan tashqari jamoatchilikning ichki ishlar organlari bilan munosabatiga oid savollar to'plami kiritilgan.

## 9.1 IIO post-patrullarining faoliyati haqida

Birinchi savol mahallada ichki ishlar xodimi xodimlarining patrol xizmatini ko'zga tez-tez ko'rinishi haqida ('O'rtacha hisobda siz o'z hududingizda ichki ishlar xodimi xodimlarini piyoda patrol qilayotganini tez-tez ko'rasizmi?'). Aholining

yarmi kamida haftasiga bir marta o'z mahallasida (mahalliy hududda) ichki ishlar organlarining patrol xizmatini kuzatadi. E'tiborlisi, Farg'ona vodiysida aholining to'rtidan bir qismi hech qachon ichki ishlar xodimi patrullarini ko'rmasligini aytadi.



**9-1-jadval. O'rtacha hisobda siz o'z hududingizda ichki ishlar organlarini piyoda patrul xizmatini tez-tez ko'rasizmi? Viloyat va shahar/qishloq hududi bo'yicha, yosh guruhi va jinsi bo'yicha bo'lingan.**

	Farg'ona vodiysi, O'zbekiston %	Farg'ona viloyati %	Andijon viloyati %	Namangan viloyati %	Shahar %	Qishloq %
Kuniga bir martadan ortiq	3	5	2	1	3	3
Bir kunda bir marta	21	21	19	24	20	22
Taxminan haftada bir marta	29	27	29	33	29	30
Taxminan oyiga bir marta	19	12	23	24	19	18
Oyiga bir martadan kam	12	11	13	10	12	11
Hech qachon	15	24	10	8	16	14
[Bilmayman]	1	0	3	0	1	2

## 9.2 Fuqarolarning ichki ishlar organlari bilan qay vaziyatda muloqot qilganlari haqida

So'rovnomada so'nggi o'n ikki oy ichida ichki ishlar organlari bilan qilingan muloqotning to'rt turi haqida so'ralgan: fuqarolarning o'z tashabbuslari bilan, mashinada to'xtatilgandan keyin, piyoda to'xtab turganda va ichki ishlar organlari bo'limidagi suhbatlar. 9-2-jadvalda ushbu turdagi muloqotning yosh va jins bo'yicha kesimda

foizlari ko'rsatilgan. Jamoatchilikning besh foizi so'nggi o'n ikki oy ichida (N=158) qandaydir sababga ko'ra ichki ishlar organlariga murojaat qilganliklarini aytishdi. Yosh guruhlari o'rtasida farq yo'q edi. Erkaklar ichki ishlar organlariga ayollarga qaraganda ikki baravar ko'proq murojaat qilishgan.

**9-2-jadval. So'nggi 12 oy ichida ichki ishlar organlari boshqa sabab bilan muloqot qilish, yosh va jins bo'yicha kesimda.**

	Farg'ona vodiysi		Yosh			Jins	
	N	%	18-29	30-44	45+	Erkak	Ayol
			%	%	%	%	%
Siz huquqni muhofaza qilish organlariga shaxsan telefon orqali, ko'chada yoki biron sababga ko'ra murojaat qilganmisiz?	158	5	5	6	5	7	3
Mashinada yoki mototsiklda bo'lganingizda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari sizga yaqinlashganmi yoki to'xtatganmi?	303	10	8	13	9	17	3
Piyoda yurganingizda muhofaza qilish organlari xodimlari sizni to'xtatib, savollar berishganmi?	109	4	5	4	3	5	2
Suhbat uchun ichki ishlar organlari bo'limida bo'lganmisiz?	64	2	2	2	3	3	1

10 foiz respondent mashinada yoki mototsiklda (n= 303) ichki ishlar organlari tomonidan to'xtatilgan. O'rta yoshdagi guruh kichik yoki katta yoshdagilarga qaraganda ko'proq to'xtatilgan, ehtimol mulkga egalik darajasi yuqori bo'lganligi sababli. Erkaklar ayollarga qaraganda olti marta ko'proq to'xtatilgan. Ushbu muloqotning yetti foizida ichki ishlar organlari sababini aytmagan. Deyarli barcha hollarda ichki ishlar organlari o'zini tanishtirgan yoki shaxsni tasdiqlovchi ma'lumot ko'rinib turgan.

To'rt foiz respondent piyoda yurish paytida to'xtatilgan (N = 109). Ko'pincha erkaklar va eng yosh guruhlar to'xtatilgan. Ushbu muloqotning aksariyati (jinoiy) huquqbuzarliklarga bog'liq emas, balki shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni

tekshirish uchun mo'ljallangan (15% holatda sabab ko'rsatilgan).

Ikki foizi respondent suhbat uchun ichki ishlar organlari bo'limida bo'lgan. Buning sabablari xilma-xil edi. 19% hollarda hech qanday sabab ko'rsatilmagan, shuningdek, 19% hollarda ichki ishlar organlari respondent ishtirok etishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik haqidagi xabarga munosabat bildirgan. 5% i shaxsni aniqlashda adashish bilan bog'liq. 9% respondentdan biror narsaning guvohi bo'lganligi so'ralgan. 30% foiz holatda huquqbuzarlik emas, balki boshqa sabab bilan bog'liq bo'lgan va 8% i kirib, shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishi zarur bo'lgan.

To'rt turdagi muloqotning barchasida erkaklar ayollarga qaraganda ancha ko'p bo'lgan.

## 9.3. Fuqarolarning qoniqish darajasi

9-3-jadvalda ichki ishlar xodimining muomalasidan qoniqish hosil qilgan fuqarolarning yosh va jins bo'yicha ulushi ko'rsatilgan.

Har qanday turdagi ichki ishlar organlari bilan to'qnash kelgan fuqarolarning katta qismi bundan juda qoniqqan yoki deyarli qoniqqan edi. Ichki ishlar organlari bo'limida suhbatlashganlar orasida qoniqish darajasi eng past bo'lgan

(ularning 30 foizi qoniqmagan).

Katta yoshdagi guruh odatda ko'proq mamnun edi. Erkaklar va ayollar o'rtasida kam farq bor edi. Fuqarolar qoniqmagan holatlarda, aksariyat respondent o'zini qoniqmaganligi sababi deb ichki ishlar organlari ularni uzoq vaqt kuttirganligi yoki ba'zan qo'pol munosabatda bo'lganligini ko'rsatdilar.

**9-3-jadval. Huquqni muxofaza qilish idoralarning masalani hal qilish usuli sizni qanchalik qoniqtirdi? Farg'ona vodiysidagi ichki ishlar organlari bilan to'rt turdagi muloqot (jinoiyat haqida xabar berishdan tashqari) bo'yicha foizlar to'la va qisman qoniqish darajasining yosh va jins bo'yicha kesimi**

Qaysi holatda	Farg'ona vodiysi		Yosh			Jins	
	N	%	18-29	30-44	45+	Erkak	Ayol
Men o'zim ichki ishlar organlariga murojaat qilganimda	158	79	68	78	89	80	75
Avtomobil yoki mototsikl haydash davomida to'xtatilganimda	303	87	81	86	94	88	82
Piyoda bo'lganimda to'xtatilganimda	109	86	85	90	83	84	93
Suhbat uchun ichki ishlar organlari bo'limiga bo'lganimda	64	70	63	58	85	72	68

## 9.4 Xalqaro nuqtai-nazar

Fuqarolar va ichki ishlar organlarining muloqoti haqidagi taqqoslanadigan ma'lumotlar bir nechta mamlakatlarda mavjud. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, ichki ishlar organlariga o'zlari murojaat qilgan fuqarolarning foizlari Buyuk Britaniyada 25%, Qirg'izistonda 7%, Gruziyada 9% va Farg'ona vodiysida 5%<sup>16</sup>. Aksincha, Farg'ona vodiysida (17% va 6%), Qirg'izistonda (21% va 8%), Gruziyada (17% va 6%) va Buyuk Britaniyada (9% va 3%) avtomobilda yoki piyoda ketayotganda ichki ishlar organlari tomonidan to'xtatilgan aholining sezilarli darajada ko'p foizi kuzatilgan. Umuman olganda, ushbu to'rtta davlat natijalari shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysi, Qirg'iziston va Gruziyada fuqarolar va ichki ishlar organlari o'rtasidagi muloqot fuqarolarning o'zlari emas, balki ko'proq ichki ishlar organlari tashabbusi bilan amalga oshgan. Bundan farqli o'laroq, fuqarolar va ichki ishlar organlari o'rtasidagi muloqotlar ko'pincha Buyuk Britaniyadagi fuqarolar tashabbusi bilan sodir bo'lgan. Gollandiya va AQSh natijalari bu xilma-xillikni tasdiqlaydi. Niderlandiyada aholining 19% ichki ishlar organlari bilan shaxsiy muloqotda bo'lgan (Veiligheidsmonitor, 2020).

Ushbu holatlarning kichik bir qismida muloqot ichki ishlar organlari tashabbusi bilan bo'lgan (barcha muloqotning 12%). AQShda 2015 yilgi jabrlanganlar bo'yicha milliy so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, katta yoshli aholining 11 foizi so'nggi o'n ikki oy ichida ichki ishlar organlari bilan muloqot qilishni tashabbuskori bo'lgan va yana 11 foizi ichki ishlar organlariga murojaat qilgan, shulardan 8,6 foizi yo'l harakati vaqtida to'xtatilganda. (BJS, 2018).

Farg'ona vodiysi aholisining ichki ishlar organlari bilan muloqoti natijalarini boshqa mamlakatlardagi taxminan o'xshash ma'lumotlar bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlari tashabbusi bilan, ayniqsa, to'xtatish vaqtida muloqotlar Farg'ona vodiysida Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Gollandiya va AQSHdagiga qaraganda ko'proq uchraydi. Ichki ishlar organlari tashabbusi bilan muloqotning bunday ko'pligi Qirg'iziston va Gruziyada ham kuzatilgan. Farg'ona vodiysida ichki ishlar organlarining masalani hal qilish usulidan qoniqish darajasi Qirg'iziston va Gruziyadagidan ko'ra ijobiyroq edi.

<sup>16</sup> 1991 yildan 2011 yilgacha Britaniyadagi jinoyatchilik bo'yicha tadqiqotda xuddi shu savollar to'plami ishlatilgan (keyingi bosqichlarda ular ichki ishlar organlari faoliyati haqida tasavvurga oid turli boshqa savollar bilan almashtirilgan).

# 10 16-BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADINI SO'ROV NOMAGA ASOSLANGAN KO'RSATKICHLAR YORDAMIDA MONITORING QILISH

Ushbu bo'limda mazkur so'rov natijalaridan Barqaror rivojlanish maqsadining Global ko'rsatkich doirasiga muvofiq 16-Barqaror rivojlanish maqsadiga erishish - odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash va zo'raonlikni kamaytirish - erishilgan yutuqlar to'g'risida hisobot tayyorlash uchun qanday foydalanish mumkinligi muhokama qilinadi. Mamlakatlar aholi so'rovlari natijalariga asoslangan statistik ko'rsatkichlardan foydalangan holda "taraqqiyotni kuzatish, siyosat haqida xabardor qilish va barcha manfaatdor tomonlarning mas'uliyatini ta'minlash uchun "BRM 16"ga erishish yo'lida erishilgan yutuqlar to'g'risida hisobot berishi kutilmoqda.

Hozirgacha faqat bir nechta davlatlar BRM ko'rsatkichlariga tegishli 9 IAEG-BRM yuzasidan idoralararo va ekspertlar guruhi tomonidan BRM 16 bo'yicha hisobot berish uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlar haqida to'liq ma'lumotlarni samarali to'plagan. Bunday ma'lumotlarni to'plashni rag'batlantirish uchun Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi (OHCHR), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi

(BMT TD) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi

(BMT GMJBB) tegishli ko'rsatkichlar bo'yicha maxsus so'rov tayyorladi va sakkiz mamlakatda sinovdan o'tkazildi (Statistik komissiya, 2021).

2021 yil XVT-ga asoslangan viktimizatsiya so'rovi tasdiqlangan BRM ko'rsatkichlariga to'liq yoki qisman mos keladigan bir qator elementlarni o'z ichiga oldi. Ushbu bandda qayd etilgan natijalar mazkur hisobotning boshqa bandlarida muhokama qilingan, ammo bu yerda BRM ko'rsatkichlarining o'ziga xos kontekstida keltirilgan. Biz Qozog'iston, Qirg'iziston va Gruziyadagi so'nggi so'rovlarning o'xshash natijalari bilan solishtiramiz.

Tasdiqlangan BRM ko'rsatkichi 16.1.3: "Jismoniy, psixologik yoki jinsiy zo'raonlikka duchor bo'lgan aholi ulushi". Jinsiy huquqbuzarliklar (faqat ayollar), tajovuz va tahdidlar uchun viktimizatsiya natijalari jismoniy va jinsiy zo'raonlik uchun ushbu ko'rsatkich ta'rifiga to'liq mos keladi.

**Jadval 10-1. So'nggi o'n ikki oy ichida kamida bir marta jabrlangan aholi ulushi**

	so'rov o'tkazilgan yil	Jinsiy huquqbuzarliklar (ayollar) %	Hujum va tahdid %
Farg'ona vodiysi	2021	0.1	0.5
Gruziya	2020	0.4	1.1
Qozog'iston	2018	1.7	3.7
Qirg'iziston	2015	1.1	1.0

BRM 16.1.4 uchun tasdiqlangan ko'rsatkich: "O'z hududida yolg'iz yurganida xavotir his qiladigan aholi ulushi". Bu ko'rsatkich Gallup Inc tomonidan ishlab chiqilgan va XVT tomonidan qabul qilingan ko'rsatkichdan biroz farq qiladi, utunda yurish paytida xavotir hissi paydo bo'lishiga qaratilgan. Gallup

har yili 160 dan ortiq mamlakatlarda o'tkaziladigan Global Jahon So'roviga standart bandiga kiritganligi sababli, ushbu banddan monitoring maqsadlarida foydalanish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Jadvalda XVT natijalari keltirilgan.

**Jadval 10-2. Kechasi mahallada sayr qilganda xavotir his qilish foizi.**

	so'rov o'tkazilgan yil	Qorong'i tushgandan keyin ko'chada xavfni his qilish %
Farg'ona vodiysi	2021	6
Gruziya	2020	22
Qozog'iston	2018	25
Qirg'iziston	2015	33

BRM 16.3.1 uchun tasdiqlangan ko'rsatkich quyidagicha o'qiladi: Viktimizatsiya haqida hokimiyat organlariga murojaat qilgan bergan zo'ravonlikdan

jabrlanganlarning ulushi. Ichki ishlar organlariga murojaat qilish to'g'risida jabrlanuvchilarga qo'yiladigan standart qo'shimcha savol ta'rifga to'liq mos keladi.

**Jadval 10-3 Hokimiyat organlariga zo'rvonlik jinoyati haqida murojaat qilgan jabrlanuvchilarning ulushi**

	so'rov o'tkazilgan yil	Jinsiy huquqbuzarliklar (ayollar) %	Hujum va zo'rvonlik tahdidi %
Farg'ona vodiysi	2021	50(n=2)	24
Gruziya	2018	12	17
Qozog'iston	2015	32	20
Qirg'iziston	2020	9	39

BRM 16.5.1 uchun tasdiqlangan ko'rsatkich: "Mansabdor shaxs bilan kamida bir marta muloqotda bo'lgan va davlat mansabdor shaxsi pora berishni so'ragan yoki unga pora bergan shaxslar ulushi". XVT bandi aholining davlat yoki xususiy mansabdor shaxslarga pora bergan yoki berishi kerak bo'lgan foiziga tegishli.

**Jadval 10-4 Davlat yoki xususiy mansabdor shaxslar tomonidan pora olish natijasida jabrlangan aholining ulushi**

	so'rov o'tkazilgan yil	Ko'cha darajasidagi korrupsiya %
Farg'ona vodiysi	2021	1.5
Gruziya	2018	0.6
Qozog'iston	2015	5.2
Qirg'iziston	2020	14.2



# 11 XULOSALAR VA SIYOSATGA TA'SIR

Qishloq joylaridagi intervyu oluvchilarga ba'zan shubha bilan qaralgan va yosh respondentlar jinsiy hodisalar haqidagi savollarga javob berishni istamagan bo'lsalar-da, O'zbekistonda birinchi marta o'tkazilgan bu viktimizatsiya tadqiqoti uchun joylarda olib borilgan ishlar umuman muammosiz kechdi.

Xususiy sektordagi firibgarlik, iste'molchilarni firibgarlik yo'li bilan aldash va pora so'rash holatlarida viktimizatsiyaning eng yuqori ko'rsatkichlari aniqlangan.

So'rov jarayonida Farg'ona vodiysi aholisini umumlashtirib O'zbekiston aholisi deb atasak, ushbu tadqiqot xalqaro kontekstda O'zbekistonni "jinoyat darajasi past davlat" deb topadi. Darhaqiqat, to'qqizta yirik jinoyatning standart to'plami uchun jami bir yillik viktimizatsiya darajasi 3,1% bo'lgan O'zbekiston XVT tadqiqot o'tkazgan eng xavfsiz mamlakatlardan biri hisoblanadi. (n > 90). Ko'chalardagi xavfsizlik yoki uyga bostirib kirish xavfi bo'yicha so'rov natijalari O'zbekiston dunyodagi eng xavfsiz davlatlardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Qozog'iston va Qirg'iziston kabi mintaqadagi boshqa ko'plab sobiq Sovet respublikalaridan farqli o'laroq, Farg'ona vodiysida davlat mansabdorlarining poraxo'rlik darajasi xalqaro kontekstga nisbatan past. So'nggi bir yil ichida aholining 2 foizi davlat yoki xususiy sektordagi mansabdorlar tomonidan

pora ta'ma qilinishini shaxsan boshdan kechirgan. Bu ko'rsatkich Gruziyadagidan bir oz ko'proq, lekin Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasiga qaraganda ancha past.<sup>17</sup>

Gallup World Poll, har yili dunyoning 160 dan ortiq mamlakatlarida o'tkaziladigan aholi so'rovi so'nggi o'n ikki oy davomida mos ravishda "o'g'irlik" va "zo'ravonlik jinoyati" viktimizatsiyasi haqidagi ikkita keng qamrovli savolni o'z ichiga oladi. (Gallup, 2020). Ushbu keng qamrovli tadqiqot natijalari tahlili shuni tasdiqlaydiki, O'zbekistonda umumiy jinoyatchilik darajasi so'nggi o'n yil ichida tadqiqot o'tkazilgan 166 davlat orasida eng past ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. (Van Dayk, Nieuwebeerta va Larssen, 2021). Darhaqiqat, ushbu so'rov natijalariga ko'ra, O'zbekiston Singapur bilan bir qatorda o'g'irlik va zo'ravonlik jinoyatlaridan viktimizatsiya darajasi eng past bo'lgan davlatdir.

Aholi punkti (shahar/qishloq), yoshi, jinsi va daromadi/ma'lumot darajasi bo'yicha viktimizatsiya ko'rsatkichining taqsimlanishi ko'p jihatdan boshqa mamlakatlardagi universal modellarga mos keladi.

Gender farqlar unchalik katta emas. Yosh viktimizatsiya xavfi bilan teskari bog'liq bo'lib, eng katta xavf ostida yoshlar va kam xavf ostida keksa odamlardir. O'zbekistonning Farg'ona vodiysidagi yoshlar ham yo'l-transport hodisasi oqibatida jarohat olish xavfi yuqori. Viktimizatsiya darajasi daromad va ma'lumoti darajasiga qarab oshadi.

<sup>17</sup> Transparency International tashkilotining 2021 yilgi Global korruptsiya bo'yicha indeksida O'zbekiston 180 mamlakat ichida 140-o'rinni egallagan, bu umuman korruptsiya bilan bog'liq nisbatan jiddiy muammolardan dalolat beradi.



Ushbu ko'rsatkichlar xalqaro ma'lumotlarga mos keladi va ularni "hayot tarziga ta'sir qilish" nazariyasi bilan izohlash mumkin. (Hindelang et al., 1978).

Farg'ona vodiysida ichki ishlar organlariga viktimizatsiya holatlari haqida xabar berish ko'rsatkichi xalqaro ko'rsatkichlarga nisbatan past. Ichki ishlar organlariga murojaat qilgan jabrlanuvchilarning qoniqish darajasi ham nisbatan past. Oldinroq xabar berishning va jabrlanganlar qoniqishining pastligi boshqa ko'plab sobiq Sovet respublikalarida, jumladan, yaqinda Qirg'iziston (2015), Qozog'iston (2018) va Gruziya (2020)da kuzatilgan.

O'tgan o'n ikki oyda Farg'ona vodiysi aholisining 17 foizi avtomobil haydab ketayotganda, olti foizi esa piyoda ketayotganda ichki ishlar organlari tomonidan to'xtatilgan. O'zbekistonda ichki ishlar organlari tashabbusi bilan muloqot qilish hollari Buyuk Britaniya, Niderlandiya va AQShga qaraganda tez-tez uchrab turadi. Bundan farqli o'laroq, fuqarolarning ichki ishlar organlariga bevosita murojaat qilish holatlari soni ushbu uch davlatga qaraganda ancha kam. Farg'ona vodiysida fuqarolarning ichki ishlar organlariga murojaatlari mazmuni 2015-yilda Qirg'iziston va 2020-yilda Gruziya kabi boshqa sobiq sotsialistik mamlakatlarda kuzatilganiga o'xshash. Keyingi mamlakatlarda ham muloqotlar asosan ichki ishlar organlari tashabbusi bilan, masalan, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirish maqsadida amalga oshirilgan.

Ichki ishlar organlarining fuqarolar bilan muloqotlari bo'yicha olingan ma'lumotlar

asosida nega O'zbekistonda ichki ishlar organlari G'arbiy Yevropa va AQShga qaraganda fuqarolar bilan o'z tashabbuslari bilan ko'proq muloqotga kirishadi, nega fuqarolarning o'zlari tashabbus qilish ehtimoli kamroq, degan savol tug'iladi. Buning extimol tutilgan sabablaridan biri shuki, sobiq ittifoq respublikalaridagi ichki ishlar organlarining faoliyati an'anaviy ravishda fuqarolarga huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha maslahatlar berish, jabrlanuvchilarni xabardor qilish yoki ularga yordam berish kabi xizmatlar ko'rsatishdan ko'ra, ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish orqali ularni nazorat qilishga qaratilgan.

Jinoyatchilikning turli alohida jihatlari va jinoyatchilikka qarshi kurash haqidagi jamoatchilik fikri boshqa mamlakatlarga qaraganda ijobiyroq. Ko'chada ketayotganda xavotir hissi nisbatan past, bu mamlakatda talonchilik yoki hujumga duchor bo'lish xavfining pastligiga mos keladi. Ehtimoliy bosqinchilik haqidagi xavotirlar, shuningdek, bosqinchilik natijasida viktimizatsiya xavfi xalqaro nuqtai nazardan ham o'rtacha. Umumiy jinoyatlardan jabrlanish darajasi mamlakatda ob'ektiv jihatdan juda past va jamoatchilik tomonidan xuddi shunday qabul qilinadi..

Aholining ko'pchiligi ichki ishlar organlari o'z ishini umuman a'lo darajada bajarayapti, deb hisoblaydi. Ichki ishlar organlari faoliyati to'g'risidagi jamoatchilik fikri XVT bo'lib o'tgan boshqa mamlakatlardagi o'rtacha ko'rsatkichdan ijobiyroq va yaqinda Qirg'iziston, Qozog'iston va Gruziyada belgilangan darajadan biroz yuqoriroqdir.

## 11.1 Tavsiyalar

So'rov bo'yicha joylardagi ishlar belgilangan muddatlarda va byudjet doirasida muvaffaqiyatli yakunlanganini inobatga olib, jinoyatchilik va xavfsizlik tendentsiyalarini milliy miqyosda monitoring qilish maqsadida mamlakat aholisi, jumladan, Toshkent shahri aholisi orasida takror so'rov o'tkazish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Ushbu tadqiqot natijalaridan Birlashgan Millatlar Tashkilotiga 16-Barqaror rivojlanish maqsadiga erishish bo'yicha hisobotni tuzishda ham foydalanish mumkin.

Ushbu milliy so'rovda yana ayol respondentlardan nozik mavzular bo'yicha intervyu olishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari, butun dunyo bo'ylab tobora ko'payib borayotgan bank kartalari orqali firibgarlik va kiberbulling kabi kiberjinoyatlarga oid qo'shimcha savollarni kiritish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Siyosatni ishlab chiqish nuqtai nazaridan, so'rov natijalarining ba'zilari alohida e'tibor va kuzatishga loyiqdir.

### Firibgarlik, qalbakilashtirish va poraxo'rlikka qarshi kurash

Jamiyat uchun eng dolzarb muammolar xususiy sohadagi firibgarlik, iste'molchilarni firibgarlik yo'li bilan aldash va mansabdor shaxslarning pora so'rashi bilan bog'liq bo'lganligi sababli, huquqbuzarliklar profilaktikasi dasturlari, birinchi navbatda, ushbu turdagi jinoyatlarga qaratilgan

